

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

“FILOLOGIYA” FAKULTETI 4-BOSQICH 403-GURUH TALABASI

SULTONOVA XURSHIDA AZAMATOVNANING

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

MAVZU: AMIRIY IJODIDA NAVOIY AN‘ANALARI

Ilmiy rahbar: N.M.MUHIDDINOVA.

SAMARQAND– 2014

REJA:

KIRISH.

- mavzuning dolzarbligi;
- mavzuning o‘rganilish darajasi;
- tadqiqodning maqsad va vazifalari;
- ishning ilmiy yangiligi.

ASOSIY QISM.

I BOB. Amiriy hayoti va adabiy merosi.

- 1.1. Amiriy ijodining o‘rganilish tarixi.
- 1.2. Amiriy adabiy merosi, devoni nashri.

II BOB. Amiriy ijodida Navoiy ijodining badiiy ta’siri.

- 2.1. Amiriy she’riyatida Navoiy g‘azallariga tazmin
muxammaslar badiiyati.
- 2.2. Amiriy va Navoiy ijodida tasvir mahoratining
hamohangligi.
- 2.3. Shoirilar ijodida ishq talqini .

XULOSA.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

Mavzuning dolzarbligi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin barcha sohalarda keng va samarali islohotlar olib borildi. Bugun insoniyat hayoti, kishilik taraqqiyoti shunday bosqichda turibdiki, unda xalqaro globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlari yangicha zamon talablari asosida kechmoqda. Endi bu davr maydonida ijtimoiy mazqei, harbiy qudrat kabi omillar bilan emas, balki intellektual salohiyat, aql-idrok, fikr, ilg'or innovatsion texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb eta boshladi. Bunda esa ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish bilan erishish mumkin. Bu sohada esa adabiyot yetakchilik qiladi.

Ko'p asrlik mumtoz adabiyotimizning boy mundariyasi, keng ko'lami va serjilo qirralarini yanada chuqurroq idrok etishda, shuningdek, adabiy meroslari batamom yoki yetarli darajada o'rganilmagan faoliyatlari bir tomonlama baholangan ijodkorlar haqida xolis tadqiqotlar yaratishda ko'pgina ishlar amalga oshirildi. Buyuk allomalarimizning asarlari yangi yozuv bo'yicha nashr etildi. Ko'pgina tillarga ham tarjima qilindi. Mintaqamizda yashab o'tgan ulug' allomalar, mutafakkir zotlar bizgacha ulkan meros qoldirgan.

Mana shunday bebaho asarlari, bugungi kun yoshlarini ma'naviy-ma'rifiy jihatdan tarbiyalashda, yoshlarni yetuk barkamol avlod bo'lib yetishishida, komil inson bo'lishida muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Mana shunday bebaho asarlar mualliflari, sharq mumtoz adabiyotining yetuk namoyondalaridan bo'lgan Navoiy va Amiriy ijodini olishimiz mumkin. Amiriy ijodini Alisher Navoiy an'analari bilan bog'lovchi jihatlar turli shakllarda namoyon bo'ladi. Birinchi navbatda, Amiriy ham Navoiydek ma'rifatli, diyonatli shaxs, davlat arbobi bo'lishga, yurt-el tinchligi va osoyishtaligini saqlashga, madaniyat hamda adabiyotga homiy bo'lishga intildi. Mir Alisher Navoiydek she'r amiri bo'lishni orzu qildi, shu yo'lda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Uning Amiriy so'zini taxallus sifatida tanlashida ham ramziy ma'no, Navoiyga ergashish, ehtirom bor. Mir va amir so'zlarida shohlik va hukmdorlik ma'nolaridan tashqari, she'riyatda nom chiqarish, kuchli iz qoldirish ma'nolari ham bo'lsa kerak.

Zero, asarlarining bir joyida Saidumarbek o'zining ishq ahlining shohi, amiri ekanligiga ham ishora qiladi. Ikkinchidan, u badiiy ijoddagi an'analarga sodiq bo'lib, Navoiyni o'ziga birinchi madadkor, ustoz sifatida tanlaydi. Navoiy asarlarini ko'p nusxalarda ko'chirtiradi, she'riyat darsligiga aylantiradi. Navoiy an'analarning Qo'qon adabiy muhitida keng tarqalishini ta'minlaydi. Navoiy dahosidan ta'sirlanib g'azallar, muxammaslar ijod qiladi.

Amiriyning ishq mulkining shohi sifatida Navoiyning haqiqiy va majoziy ishqni tarannum etuvchi lirik she'rlaridagi insonparvarlik tuyg'ulari, komil inson haqidagi umumbashariy g'oyalaridan ta'sirlanib, ularni ma'qullab, o'z davri sharoiti va talabiga ko'ra ularni boyitib, davom ettiradi. Navoiyning she'riyat muxlislari orasida keng tarqalgan, sevib kuylangan g'azallariga nazirasifat she'rlar yaratadi. Bu ijodkorlarning yaratgan durdona asarlarni o'rganish, tiklash orqali biz bosh maqsad – huquqiy demokratik davlatga, to'laqonli fuqarolik jamiyatiga, mamlakatning xalqaro miqyosda mavqeini mustahkamlab borishga erishishimiz mumkin. Hozir biz yashayotgan jamiyatimizda ham eng muhim muammolardan biri shaxsni barkamol va komil inson qilib tarbiyalashdir. Ushbu manba bu muammoni yechish uchun kalit vazifasini o'taydi. Bu ijodkorlarning asarlarini o'qigan va unga amal qilgan har bir shaxs komillikka intiladi. Shu jihat mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o'rganilish darajasi.

Bugungi kunga qadar Amiriyning ijodi ko'plab adabiyotshunoslarimiz tomonidan o'rganilib kelingan. Bundan keyin ham o'rganishda davom etmoqdalar. Adabiyotshunoslarimiz Amiriy ijodini o'rganish borasida o'zlarining ko'plab asarlarini, ilmiy ishlarini, maqolalarini taqdim etganlar. Xususan, bu shoir ijodiga oid dastlabki tadqiqotni Aziz Qayumov "Qo'qon adabiy muhiti" tarkibida 1969-yilda tadqiq qilgan.

Keyingi ma'lumotlarni olimah Mahbuba Qodirova 1972 yili katta kirish so'zi bilan chop etildi. Bu tadqiqotda Amiriy hayoti va ijodi haqida hikoya qilingan. Bundan tashqari A.Hayitmetov, H.Muhammadxo'jayev, R.Orzibekov, Z.Qobilovanning Amiriy va uning ijodiga bag'ishlangan maqolalari, adabiy

portretlari maydonga keldi. Ularning har birida Amiriy ijodiga to'xtalib o'tilgan, lekin Amiriy ijodida Navoiy an'analari mavzusi aniq yoritib berilmagan. Tadqiqotchilarning risola va maqolalarida bu mavzu Amiriy ijodining tarkibiy qismi sifatida berib o'tilgan.

Mavzuga tegishli ma'lumotlarni qisman quyidagi adabiyotlar orqali ham olishimiz mumkin. Xususan, "O'zbek adabiyoti tarixi" 5 jildlik, N. Mallayevning "O'zbek adabiyoti tarixi", R. Orzibekovning "Adabiy merosimiz sehri", R. Orzibekov "O'zbek adabiyoti tarixi", Eshonqulov va R. Vohidovlarning "O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi" kabi asarlari va bir necha maqolalar shular jumlasidandir. Ushbu asarlardan bugungi kunda biz ham ijodkorlar ijodini o'rganishda qimmatli manba sifatida foydalanamiz.

Tadqiqotning maqsadi va vazifasi.

Asosan malakaviy bitiruv ishida quyidagi maqsadlar ko'zlangan:

- Amiriy biografiyasi va ijodining mazmunini o'rganish;
- Shoir ijodining eng ko'zga ko'ringan janrlarini o'rganish;
- Amiriy ijodida Navoiy ijodining g'oyaviy badiiy ta'sirini o'rganish;
- Har ikki shoir ijodining badiiy xususiyatlarini tahlil qilish;

Mazkur maqsadlarni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilanadi:

- Amiriy va uning ijodiga oid ma'lumotlarni to'plash;
- Uning ijodi bilan Navoiy ijodini o'zaro qiyoslab tahlil qilish;
- Ijodiy merosini tegishli adabiyotlar asosida matnshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish;

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

Adabiyotshunosligimizda Amiriy ijodida Navoiy an'analari mavzusiga oid ma'lumotlarni ko'plab ijodkorlarning ilmiy asarlari orqali olishimiz mumkin. A. Qayumov "Qo'qon adabiy muhiti" asarida Amiriyning quyidagicha ta'riflaydi: "Amiriy o'zi shoh bo'lsada qalbi darvish edi".¹ Dastlab Mahbuba Qodirova o'z ijodida bu mavzuga oid ma'lumotlarni berib o'tgan. Lekin bu

¹ Qayumov A. Qo'qon adabiy muhiti. —T., 1961. 104-bet.

ma'lumotlarda Amiriy va uning ijodiga xolisona baho berilmagan. Keyinchalik yana bir ijodkor Zeboxon Bakirovna Qobilova o'z nomzodlik dissertatsiyasining uchinchi bobida Amiriy ijodida Navoiy an'analari mavzusini yoritib bergan. Biz ham har ikkala ijodkorning ilmiy ishlari orqali Amiriy ijodi haqida ham, uning ijodida uztozlari jumladan Navoiy an'alarini qanchalar o'zlashtirgani va ularni yangilab davom ettirganini misollarda aniq ko'ramiz. Zeboxon Bakirovna Qobilovaning nomzodlik dissertatsiyasiga A.Qayumov shu yerda Amiriyning Navoiy g'azaliga bog'lagan muxammasidan bir bandni keltirib, shunday fikr bildirgan: "Afsuski, bu beshlikning tahlilini desertant bir- ikki jumla bilan cheklagan. Vaholangki, agar Amiriy Navoiyning yigirma besh g'azaliga shunday go'zal muxammaslar bog'lagan ekan, ana shu mavzuning o'zigina bir dissertatsiya mavzuyi bo'lmog'i ravshandir".²

Demak ishda tamomila dunyoviy, oddiy insoniy his-tuyg'ularni va kechinmalarni yuksak baadiyat bilan kuylagan shoirlar lirikasini tahlil qilish va uning badiiy ta'sirini ochib berishga urinish va Amiriy ijodining g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini istiqlool ruhiyati bilan tahlil etmoq ishning dastlabki yangiligidir. Qolaversa, Navoiyni ham istiqlool sharofati bilan N.Komilov tamomila yangicha talqin etdi. ("Ma'nolar olamiga safar"). Ana shu ikki shoir ijodining yangicha talqinlar asosida an'ana va o'ziga xosligini qiyosiy tahlil etish tadqiqodning asosiy ilmiy yangiligini taqozo etadi.

Ishning hajmi

Ish kirish qismi, ikki bob, beshta fasl, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

²Qayumov A. Qo'qon adabiy muhiti. —T., 1961.110-bet.

I.BOB Amiriy hayoti va adabiy merosi

Said Umarbek - Umarxon, adabiy taxallusi Amir, Amiriy bo'lgan hukmdor, shoh va shoir o'zbek mumtoz adabiyotining yorqin siymolaridan biri sanaladi. U o'zining ancha qisqa, atigi 35 yillik umri davomida madaniyat va adabiyot rivojiga katta havas bilan qarab, o'z poytaxt shahri Qo'qonda kuchli adabiy markaz tashkil etgan. Yuzdan ortiq shoiru adiblar, xofizu xonandalar, kulgi, askiya ustalari, xattotlar uning homiyligida o'z iste'dodlarini namoyon etganlar. Amiriy saltanat shukuhi va dabdabalari bilangina o'ralashib qolmagan. Diyonati, e'tiqodi mustahkam, madaniyati yuksak shaxs sifatida mamlakat hamda el-u yurt tashvishlari bilan yashagan. Ko'p vaqtini mamlakat obodonchiligiga, bunyodkorlikka, adabiyot va san'at ravnaqiga sarf etgan.

Umarbek ayrim manbalarda 1785 yili, ayrimlarida esa, 1787 yili tavallud topgan, deb ko'rsatiladi. Bo'lajak iqtidorli hukmdor va iste'dodli shoir Umarxon puxta ta'lim-tarbiya oladi. U ayniqsa adabiyot va tarix kabi fanlarni zo'r qiziqish bilan o'qiydi, fors, arab tillarini mukammal egallaydi, diniy-islomiy manbalardan ham yaxshi xabardor bo'ladi. Norbo'tabiydan so'ng qonuniy valiahd sifatida Qo'qon taxtiga o'tirgan Olimxon (1798-1810) o'tkir zehqli, harbiy salohiyati kuchli, davlat ishlariga qiziqishi baland ukasini Farg'ona-Marg'ilon hokimi etib tayinlaydi. Olimxonning pochchasi, diniy arboblardan biri sanalmish Mas'umxon to'raning «Muntahab ut-tavorix» asarida keltirilishicha, shu shaxsning vositachiligida, Olimxonning taklifi bilan Umarbek 1808 yili amakisining (Rahmonqulibiyning) qizi Mohlaroyimga uylantiriladi. Amiriy yoshligidanoq husni malohatda, odob va axloqda, iste'dodda chinakamiga ismi jismiga monand bo'lgan Komila (Nodira)ning mashhur shoira, davlat arbobi, sifatida hurmat qozonishida ko'magi katta. Nodiraning she'riyatdagi bevosita ustozlari Amiriy bo'lgan.

Amiriy oilaviy hayotda o'ta samimiy, umr yo'ldoshiga g'amxo'r va mehribon bo'lgan. Biroq taassufki, biz sho'rolar hukmronligi yillari Umarxonni Nodiradan ajratgan holda feodal hukmdor, saroy shoiri, shuhratparast shaxs sifatida tushuntirib keldik. Ilmiy asarlarda uning shaxsi, asarlari qora bo'yoqlarda

ko'rsatildi. Amalda esa, Umarxon—Amiriy ham saltanat egasi—hukmdor, ham iste'dodli ijodkor sifatida o'z o'tmishdoshlari, Husayn Boyqaro va Mirzo Bobur yo'lidan borib, mamlakat barqarorligi, obodonligi yo'lida, madaniyat va adabiyot rivojiga muhim hissa qo'shgan ulkan bir tarixiy shaxs edi. Umarxonning akasi Olimxon saroy amaldorlari fitnasi tufayli 1810 yili Toshkentdan Qo'qonga qaytishda o'ldirilgach, 22-23 yoshli Saidumarbek xonlik taxtiga lozim ko'riladi. U 1810 yildan 1822 yilgacha hukmdor sifatida ulkan ishlarni amalga oshiradi, xonlik sarhadlarini kengaytiradi, yangi shaharlar, manzilgohlar, obod joylar barpo qildiradi. Uning davrida Qo'qon xonligi madaniy va adabiy hayotida kuchli yangilanish paydo bo'ldi. U Qo'qon adabiy markazining asoschisi, tashkilotchisi va homiysi bo'ldi. Farg'ona, uning markazi Qo'qon shoiru shuarolar qarorgohiga aylandi. Unda Husayn Boyqaro va Navoiy davri Hirot adabiy muhiti an'analari tiklangandek bo'ldi. Shuning bilan birga, u feodal hukmdor sifatida qo'shni xonlik Buxoro bilan nizolarda bo'ladi, bosib olingan o'lka va shaharlardan ko'plab aholini asir sifatida Farg'onaga keltirib, yangi manzilgohlar barpo ettiradi. «Tarixi muhojiron» memuar asari hamda «Sabot ul-bashar» she'rlar majmuasining muallifi Dilshodi-Barno yoshlik yillarida O'ratepadan asira sifatida Qo'qonga haydab keltirilganlardan biri edi. Keyinchalik u himoyat topib, Umarxon va Nodiraning iltifotiga sazovor bo'ladi. Ma'naviyat homiysi Umarxon Dilshodning iste'dodini qadrlaydi. Dilshod-Barno Nodira va Uvaysiyga maslakdosh sifatida o'z ijodini davom ettiradi, uzoq umr ko'rib, XIX asrning so'nggi choragida talantli shoira sifatida tanilgan Anbarotinga ham otinbuvilik qiladi. Haqiqatni dadil gapiruvchi bu shoira o'zining «Tarixi muhojiron» asarida Umarxon haqida so'z yuritib, uni «Olim va buyuk shoir edi, biroq shunday bo'lsa-da, mazlum aholiga mehr-shafqati kam bo'ldi», deb yozadi. Shu o'rinda Umarxonning feodal hukmdor sifatidagi salbiy jihatlari ham bo'lganligini unutmasligimiz lozim.

Qo'qon xonligi tarixi va adabiyotining chuqur bilimdoni alloma Po'latjon Domulla Qayyumovning uch jildlik «Tazkirai Qayumiy» asarida yangi ma'lumotlar keltirilgan: «Amiriy. Bu kishi Xo'qand shaharidan bo'lub, nomi Umarbek, Shohruxiylardan Norbo'tabiyning o'g'lidir. Melodiy 1787 yili

tug'ildi. She'rdagi taxallusi Amirdur. 1810 yili akasi bo'lmish Olimxonning vafotidan so'ngi Farg'ona amiri bo'lib taxtga chiqmishdur. 1822 yil vafot etmish. Ustoz Muhammad Ya'qubdan tahsili ilmi irfon olmish. Navoiyga ergashuvchi shoirlardan bo'lib, bir devonga egadur. Badiiy tomondan raso shoir ekani yozg'on ash'ori obdoridan ma'lumdur. Bu kishining xonligidan qat'i nazar, o'qandli buyuk shoir sifatida hurmat etamiz.

Tabiatan bu shoir Shohruhiylar sulolasidadan o'zbek elining Ming urug'idan yetishmishdur. O'z davrida uning saroyi adabiyot ahli ilm-ma'rifat kishilari uchun ochiq bo'lib panohtopdilar. O'shal vaqt Xuqandga atrofdan adabiyot ahllari kela boshladilar va hurmat ko'rdilar. Adabiy nashidalari bilan serob ettilar. Ma'rifat ahllari ziyodalashdi. Buning amri bilan o'shal davr shoirlarining kishilaridan Mushrif, Mirzo Qalandar va Mulla Abdulkarim Fazliylar tomonidan yaratilgan. "Majmuat ush-shuaro" kitobining zamonimizgacha yetib kelishi bir muncha klassik shoirlarimizni o'rganishga muyassar etdi. Haqiqatdan Umarxon tomonidan yaratilgan nashidalardan zavqlangan adabiyotshunoslar g'azallariga qoyil qolmaygina bo'lmadi. Jumladan Muqimiy tahsin maqomoda tubandagicha hamd etadur:

Ko'rub didori haq bo'lsun maqoming jannat ul a'lo

Nazokat gul qilur har misraingdin ey, shahi volo.

Bu bahr ichra sadaf yanglig' Muqimiysan durri yakto...

Muqimiy o'zining sadafga tashbeh etib uni qiymatining durga o'xshatur. Bu kishi o'z hayotida Shaxrixon nomli bir shaharcha barpo etdi. Yaypan qishlog'iga qo'shimcha etib Pastki qo'riq nomli joyda turar joylar-qishloq ettirdi. Oqar suvlar qozitdirdi. Ba har xol o'z zamonida bog'lar bino ettirdi. Xotuni Komila xonim va o'g'liga ta'siri g'olib bo'lib, Nodira, u Xon taxallusi ila shoirlig va shoirlikda Umarxonga ergashib badiiy nashidai dilpazirligi ila o'zbek adabiyoti olami(ga) durdonalar qo'shib boyitdilar. Adabiy oqim natijasida Muqimiy va Furqat kabi demokratik ma'rifatparvarlik oqimi ma'orif, ma'daniyat insonparvarlik buyuk daryosiga yetib kelib qo'shib ketdi. Maxmur va Gulxaniylarga nisbatan Umarxonni

xalqparvarlikda barobar tuta olmaymiz. Maxmur ila Gulxaniy kabi bo‘la olmasligi tabiiydir. Amiriyga qarashimiz ham shunga yarashadur. Huqandli shoirligi nuqtai nazaridan qaradik va to‘g‘ri baho berib o‘tdik.

O‘z davrida uning saroyi adabiyot ahli, ilm-ma‘rifat kishilari uchun ochiq bo‘lub panoh toptilar. O‘sha vaqt Xo‘qandga atrofdan adabiyot ahllari kela boshladilar va hurmat ko‘rdilar, ma‘rifat ahllari ziyodalashdi. Umarxonning amri bilan o‘sha davr shoirlaridan Mushrif, Mirzo Qalandar va Mulla Abdulkarim Fazliylar tomonidan yaratilgan «Majmuat ush-shuaro» kitobining zamonamizgacha yetib kelishi birmuncha klassik shoirlarimizni o‘rganishga muyassar etdi...».³

Adabiy merosi Amiriy tomonidan devoniga yozilgan debocha adog‘ida unga kiritilgan she‘rlarning yozilish tarixi, tartib berilishi hamda «so‘z gavharlarining sarroflari» va zufununlar maslahatlari bilan devon tarzida kitobat qilinishiga doir fikrlar keltirilgan. 1972 yili Toshkentda chop qilingan «Devon»dan 216 g‘azal, 6 mustaqil muxammas, 3 musaddas, 6 tuyuq, Navoiy, Lutfiy, Jomiy, Fuzuliy, Mirzo Bedil hamda Zaliliy, Kamol, Nobiy g‘azallariga bog‘langan tazmin muxammaslar joy olgan. Amiriy tomonidan devoniga yozilgan debocha adog‘ida unga kiritilgan she‘rlarning yozilish tarixi, tartib berilishi hamda «so‘z gavharlarining sarroflari» va zufununlar maslahatlari bilan devon tarzida kitobat qilinishiga doir fikrlar keltirilgan.

1.1 Amiriy ijodining o‘rganilish tarixi

Amiriy qoldirgan she‘riy devon olima Mahbuba Qodirova tomonidan 1972 yili katta kirish so‘zi bilan chop etildi. Biroq o‘sha yillari Amiriyga o‘xshash shoh va shoirlarga munosabat yaxshi emas edi. Shu sabab uning devonini, undagi asarlarni chuqurroq o‘rganish, ommalashtirish ishlari rivoj topmay to‘xtab qoldi. To XX asrning 90-yillari, respublikamiz mustaqil bo‘lgunga qadar Amiriy—Umarxon xususida so‘z yuritilmadi desak ham bo‘ladi. Chunki istiqlolgacha mumtoz abadiyotimiz sho‘rolar mafkurasi tazyiqi ostida «dunyoviy adabiyot», «feodal-saroy adabiyoti», «diniy-mistik adabiyot» tarzida uch guruhga ajratib yuborilgan edi. Mazkur yo‘nalishlardagi adabiyotlardan faqat dunyoviy adabiyot

³Po‘latjon Domulla Qayyumov. Tazkirai Qayyumiy, 2-jild. -T., 1998.

saralanib, u ijobiy hodisa sifatida tan olindi va o'rganildi. Hatto shu dunyoviy adabiyot vakillarining asarlari ham ilohiy-irfoniy g'oyalardan «tozalanib» tahlil va talqin qilindi. «Feodal-saroy (klerikal)» va «diniy-mistik» yo'nalishdagi adabiyot deb hisoblangan asarlar va ularning mualliflariga o'tmishni qoralash uchungina murojaat etib kelindi.

Amiriy merosiga nisbatan ham shunday yo'l tutildi. Shu bois istiqlol shabadalari esa boshlagach, Amiriy va unga o'xshash shoh shoirlar faoliyatiga, merosiga munosabat o'zgardi. Ular ijodiga ham o'zlikni anglashga, milliy g'ururni tarbiyalashga ko'maklashuvchi vositalardan biri sifatida qarash qaror topdi va topmoqda. Saidumarbek — Umarxon — Amiriy shaxsiyati va ijodi haqidagi qaydlar shoirning o'z devoniga yozgan debochada, tarixchilar tomonidan bitilgan asarlarda, «Majmuat ush-shuaro» tazkirasida, Amiriy hayoti va ijodiga doir boshqa manbalarda uchraydi.

Amiriyning adabiy merosi uning o'z davrida tartib berilgan «Devon»ida, bir qismi «Majmuat ush-shuaro» tazkirasida jamlangan. «Devon»ning o'n bitta qo'lyozma nusxasi O'zFA Sharqshunoslik instituti xazinasida saqlanmoqda. Bu qo'lyozmalarning bir qanchasi Umarxon hayotligi davrida ko'chirilgan. Amiriy she'riyatiga bo'lgan qiziqish muttassil davom etib borgan. Uning asarlari qo'shni mamlakatlarda ham sevib o'qilgan, kitobat qilingan. 1882 yili Istanbulda, 1905 yili Toshkentda bosma nashrlari yuzaga kelgan. Amiriy devonining eng yaxshi ko'lyozmasi asosida filologiya fanlari doktori Mahbuba Qodirova 1972 yili she'rlarini «Devon» nomi bilan chop ettirdi, unga ancha tafsiliy kirish so'z yozdi.

Bungacha ham uning she'rlaridan namunalar 1945 yili nashr qilingan «O'zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi» hamda 1959 yili tuzilgan «O'zbek adabiyoti» majmuasida keltirilgan edi. Amiriy tomonidan devoniga yozilgan debocha adog'ida unga kiritilgan she'rlarning yozilish tarixi, tartib berilishi hamda «so'z gavharlarining sarroflari» va zufununlar maslahatlari bilan devon tarzida kitobat qilinishiga doir fikrlar keltirilgan. 1972 yili Toshkentda chop qilingan «Devon»dan 216 g'azal, 6 mustaqil muxammas, 3 musaddas, 6 tuyuq, Navoiy, Lutfiy, Jomiy, Fuzuliy, Mirzo Bedil hamda Zaliliy, Kamol, Nobiy g'azallariga

bogʻlangan tazmin muxammaslar joy olgan. Keyingi yillari Amiriy ijodini kengroq oʻrganishga qiziqish kuchaydi. A.Hayitmetov, M.Qodirova, H.Muhammadxoʻjayev, R.Orzibekovning Amiriy va uning ijodiga bagʻishlangan maqolalari, adabiy portretlari maydonga keldi.

Saidumarbek — Umarxon — Amiriy shaxsiyati va ijodi haqidagi qaydlar shoirning oʻz devoniga yozgan debochada, tarixchilar tomonidan bitilgan asarlarda, «Majmuat ush-shuaro» tazkirasida, Amiriy hayoti va ijodiga doir boshqa manbalarda uchraydi. Bu asarlar orqali Amiriy hayoti va ijodi haqidagi maʼlumotlarga ega boʻlishimiz mumkin. Ularning har birida Amiriy ijodiga toʻxtalib oʻtilgan.

Demak mavzuni yoritishda oʻrganilish tarixining ahamiyati oʻziga xos tarzda namoyon boʻladi, biz shu oʻrganilgan manbalar orqali mavzuga oid yanada kengroq maʼlumotlarga ega boʻlamiz va ushbu asarlardan bugungi kunda Amiriy ijodini oʻrganishda qimmatli manba sifatida foydalanamiz mumkin.

1.2Amiriy adabiy merosi, devoni nashri

Anʼanaga koʻra, gʻazal Amiriy sheʼriyatining etakchi janridir.U asosan shu janr orqali ishq ahlining amiri sifatida koʻzga tashlanadi. Shu janrdagi asarlarida insonga xos najib his-tuygʻularni, hayotiy va ilohiy kechinmalarni, orzu-umidlarni tarannum etadi. Demak, muhabbat - shoir gʻazallarining yetakchi mavzuidir. Shoir

Ishq mulkini Amirimen, muhabbat zevarim,
Istaram to subhi mahshar yor vaslidin liqo.

Boshqa bir oʻrinda shoir o'zining dil mulkiga amir, ishq shahriga shoh ekanligidan faxrlanadi:

Dil mulki Amirimen, ishq shahrini shohi,
Har biri Falotundur dargahimda chokarlar.

Muhimi shundaki, Amiriyning oʻzbek va fors tillaridagi gʻazallari oʻzining xalq diliga yaqinligi, musiqiyliqi, fikriy-falsafiy teranligi, badiiy jihatdan goʻzalligi

bilan kishi qalbini hayajonlantiradi. Ularni umumbashariy ahamiyatga molik go‘zal she‘rlar deyishga haqlimiz. Shoirning o‘zi ham bundan faxrlangan va o‘zini o‘zi maqtashni o‘rinli deb bilgan:

Tab’ mavzun bo‘lsa, so‘z ahlig‘a moyildur Amir,
Ul sababdindurki, bilmishmen suxanvar qadrini.

Ayniqsa, uning «Qoshingg‘a teguzmag‘il qalamni», «Junun daryosi tug‘yon aylamakni mandin o‘rgandi», «Lab uyur takallung‘a, zulfni parishon qil», «Dedi, Yusuf ko‘rub yorimni, jononing‘a sallamno», «Xusnung kamola etti, ey mahliqo, muborak», «Surma tortib qilma jodu ko‘zni, ey dilbar, qaro», «Jahon jono, jamolingga tasadduq», «Menki ul ruxsori nur afzoya oshiq bo‘lmisham», «Qizortib chehra maydin oshiqi zoringni kuydurma» misralari bilan boshlanuvchi g‘azallari o‘zbek g‘azalchiligining nodir namunalaridir. Amiriyning ishq mavzuidagi g‘azal va muxammaslari majmuidan ishq dostoni paydo bo‘ladi, deyish mumkin. Chunki ularda sevgi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha kechinmalar — visol, hijron, firoq, rashk, iztirob, umid, shodlik o‘z lirik ifodasini topgan.

Amiriyning «Qoshingg‘a teguzmag‘il qalamni» misrasi bilan boshlanuvchi mashhur g‘azalining o‘ziga xos yaratilish tarixi bor. Amiriy haqida so‘z yuritgan adabiyotshunoslar, shu g‘azalning faqat matla’si borasida gapirganlar. Bu g‘azal qo‘shiq bolib, sevilib ijro etiladi. Qadimda bo‘yoq aynimasligi uchun siyohdon ichiga ipak tashlangan. Bir gal, Umarxon she‘r yozayotganida ilhom parisi — Nodira siyohdondan qalamni botirib berib turgan. Lekin qalam uchiga ipak ilashib chiqadi. Shoshganidan Nodira qalam uchidagi ipak patini qoshiga surtib, qalamni Umarxonga uzatadi. Umarxon qarasa, siyoh pati Nodiraning qoshiga surtilgan emishki, u o‘sha zahoti «Qoshingg‘a teguzmagil qalamni» satri bilan boshlanuvchi she‘rini bitadi. Mana o‘sha go‘zal g‘azal:

Qoshingg‘a teguzmag‘il qalamni,

Bu xat bila buzmag‘il raqamni.
Butxonalar ichra hech tarso,
Bir ko‘rmadi sen kabi sanamni.
Oshiqqlaringga tarahhum etgil,
Ko‘p ay lama javr ila sitamni.
Naqshi qadaming muyassar o‘lsa,
Naylay bu jahonda jomi Jamni.
Ko‘nglum qushi toyiri hariming,
Sayd etma kabutari haramni.
To bevatan o‘lmasun ko‘ngullar,
Zulfungdin ayurma pechu xamni.
La‘ling g‘amidin ko‘zum to‘kar qon,
Behuda kechurmagil bu damni.
Yo‘lungda g‘ubori roh bo‘ldum,
Boshimg‘a eturmading qadamni.
Sen yordin o‘zga kimga dermen,
Ko‘nglumdagi dard ila alamni.
Bir kosa sharobi arg‘uvonim,
Pomol qilur hujumi g‘mni.
Iqlimi vafo Amiridursen,
Ey shah, bu gadog‘a qil karamni.

Real hayotiy kechinma mahsuli - bu gʻazal 11 baytdan iborat boʻlib, Amiriyning hajman hiyla uzun gʻazallaridan sanaladi. Eʼtibor bering, sheʼrning matlaʼ baytidayoq uning yaqin, dildor bir shaxsga qaratilganligiga ishora bor. Taassufki, biz uzoq yillar bu shoh bayt kimga ishora ekanligi, ikkinchi lirik qahramon kim boʻlishi mumkinligi bilan durustroq qiziqmadik. Sheʼr Umarxon bilan Nodira oralarida kechgan ajoyib voqea mevasi ekanligini aniqlash xotirimizga kelmadi.

Chunki Nodira sheʼriyati Amiriy sheʼriyatidan tamomila ajratilgan holda oʻrganildi. Gʻazalning maqtaʼ baytida ham Amiriy oʻzi bilan sevikli mahbubasi Nodira oralaridagi olovli sevgi va hurmatga ishora qilib, antiteza tasvirlash usuli orqali shoh va gado mafhumlarini qoʻllaydi. Nodirani vafo iqlimining amiriga, oʻzini esa uning iltifotiga, shafqatiga muhtoj gadoga oʻxshatadi. Hayratomuz badiiy lavha!⁴

Amiriyning «Lab uyur takallumgʻa, zulfin parishon qil» deb boshlanuvchi gʻazali ham shoh asarlardan biridir. U yengil vazni, shoʻx ohangi, yorni samimiy erkalash ruhi bilan inson qalbini hayratlantiradi. Amiriyning boshqa koʻp gʻazallaridagi kabi bu gʻazalda ham hayotiy lavha va boʻyoqlar qoʻllaniladi. Qarang: gʻazal matlaʼsidayoq «Sen shirin soʻzga lab ochsang qand-shirinlikning qimmatini, anbar hidli gajagingni yozib yuborsang, anbar bahosi tushib ketadi» — deyiladi.

Lab uyur takallumgʻa, zulfni parishon qil,
Qand qimmatini sindur, narxi anbar arzon qil.

Ikkinchi baytda goʻzal «husn shohi», tengi, naziri yoʻq malohat egasi darajasiga koʻtariladi. Oshiqlar esa, hazin, gʻarib gadolar boʻlib, husn shohining rahm-shafqatiga, muhtoj. Bu oʻrinda shoir «Qoshinggʻa teguzmagʻil qalamni» gʻazali maqtaʼsidagi antitezaga oʻxshash ramziy usulga murojaat etadi:

Husn shohisen, jono, bu hazin gadolargʻa,

⁴ R. Orzibekov. Oʻzbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 2006, 169-172-betlar.

Ko‘z uchi bila boqib xayr ayla, ehson qil.

Shu zaylda shoir lirik qahramon hissiyotini ayji falakka chiqaradi, ma’shuqaning o‘z husni malohati bilan dinsizni musulmon, musulmonni kofir qilishga qodir ekanligidan so‘z ochadi. Keyingi uch baytda lirik qahramon ehtirolari yanada kuchayadi. O‘zining malak-farishtasifat oldida har qanday tobelikka tayyor ekanligini izhor etadi. G‘azalda dayr, mayxona, zohid, musulmon, sanam, gabr kabi ramziy, majoziy so‘zlarning ishlatilishi g‘azalning tasavvufiy-ilohiy yo‘nalishga ham ega ekanligidan dalolat beradi:

Ishq dinig‘a munkir bo‘lsa zohidi xudbin,
Ey sanam, liqo ko‘rsat, gabmi musulmon qil.

Badiiyat jilolariga e’tibor qarating!

Istasang ko‘ngullarni g‘amza yoyiga qurbon,
Qoshlaring hilolini mohi iydi qurbon qil.

Sho‘xi chashmi navxatsen, noz dashtida sayr et,
Gardi xoki poyingni surmai g‘azolon qil.

Yor la‘lidin harfe ayladim Amir insho,
Eyo ko‘ngul, bu gavharni jon ichida pinhon qil.

Birinchi baytda tajnis san’ati bor: qurbon-qurbon qilish hamda Iydi qurbon-Qurbon hayiti. Ikkinchi baytda lutf, mubolag‘a usullari: noz dashtida sayr etajak yorning oyog‘i tekkan tuproqlar gardini ohular o‘z ko‘zlariga surma qilsinlar. Ohuning ko‘zi o‘zi tengsiz darajada go‘zal, hayratlanarli. Demak, Amiriy murojaat etayotgan, tasvirlayotgan go‘zalning ko‘zlari ohular ko‘zlaridan ham chiroyliroqdir.

Insonning eng muqaddas tuygʻulari koʻngulda jo boʻladi. Koʻngul ilohiy maʼnoga ham ega. Oshiq koʻngli yorga boʻlgan sadoqat va muhabbatni jonidek aziz koʻradi. Shu bois, Amiriyning boshqa koʻp gʻazallaridek, bu gʻazal oʻsha zamondayoq shunchalar eʼtibor va qiziqish uygʻotadiki, uning saroydagi malik ush-shuaro Adodan, Fazliydan tortib qariyb barcha shoirlar Amiriy gʻazali mazmuni, vazni va radifida payrov gʻazallar bitadilar. Bu anʼana keyingi shoirlar ijodi tajribalaridan ham oʻtib, Hamza-Nihoniy ijodigacha davom etadi. Uning «Qil» radifli gʻazali Amiriy hamda Fazliyning «Qil» radifli gʻazallari taʼsirida yozilganligini eslang.

Amiriy bir qancha diqqatangez tuyuqlar ijod qilgan. Shulardan oltitasi joriy nashrda keltiriladi. Maʼlumki, tuyuq soʻz oʻyinlariga, omonimik soʻzlar jilvasiga asoslangan, hazil-mutoyiba ruhi bilan sugʻorilgan, soʻzamollikni namoyish etuvchi, kitobxonga zavqu shavq bagʻishlovchi miniatyur lirik janrlardan biridir. Xalq ogʻzaki sheʼriyatidagi qoʻshiq qilib aytishga moslangan bu janrning ajoyib namunalari XV—XVI asrlar oʻzbek sheʼriyatida uchraydi. Tuyuqlar, ularning qofiyalarida jinsdosh-tajnis soʻzlarning ishlatilishi oʻzbek tilining boyligidan, goʻzalligidan dalolat beruvchi dalillardan biridir. Biroq, bu janrning namunalari XVII—XVIII asrlar oʻzbek mumtoz sheʼriyatida kam uchraydi. Shu nuqtai nazardan, XIX asr avvallarida xorazmlik shoirlardan Shermuhammad Munis hamda qoʻqonlik ijodkorlardan Amiriyning bir qancha original tuyuqlar ijod qilishga muvaffaq boʻlganliklari ijobiy holdir. Munis va Amiriy aʼanaviy bu janrga yangidan hayot bagʻishladilar, desak xato boʻlmaydi.

Amiriy tuyuqlarida kitobxonni mulohaza qilishga, tajnis soʻzlarning maʼnolarini bilib olishga chorlovchi, uning soʻz boyligini oshirishga xizmat etuvchi joziba bor. Shu bois, ularni umumiy tarzda boʻlsa-da, bir-bir koʻzdan oʻtkazish foydadan xoli emas.

Birinchi tuyuq:

Orazing gulzori jannat bogʻidur,
Tori zulfungjon qushini bogʻidur.
Halqai zunnor zulfung davrida,

Kofiri ishq o'lmog'onlar bog'idur.

Birinchi misradagi «bog'idur» — jannat, firdavs bog'i, ikkinchi misradagisi robita, bog'lovchi vosita, to'rtinchi misrada esa, ishq gashtini so'rolmaganlar, uning yo'lida alam chekmaganlar bedard odamlardir ma'nolarida qo'llanilgan.

Ikkinchi tuyuq:

Ey parivash, gul yuzungdin parda ol,
Kim g'amidin ko'zda yoshim bo'ldi ol.
Yor bo'lg'oylar senga mahshar kuni,
Ahmadi Muxtor ila Ashobi ol.

Birinchi misradagi «ol» tajnis so'zi «yuzingdagi pardani olib tashla», ikkinchi misradagisi «qizil» va to'rtinchi misradagisi esa, «mahshar kuni senga avliyolar yordam beradi, jazolanishdan saqlab qoladi» ma'nolarini anglatadi.

Uchinchi tuyuq an'ana bilan bog'liq. Sakkokiy, Xoja va boshqa bir qancha shoirlar g'azallarida, tuyuqlarida ko'p ma'nolarda ishlatiladigan so'z-qofiya Amiriy tuyug'ida ham «kechamen» so'zi ma'nolari kengaytirilib, kecha-tun, kecha-jondin kechmoq, kecha-suv kechmoq ma'nolarida ishlatilgan.

To'rtinchi tuyuqdagi tajnis qofiya «qoshidin» so'zidir. Unda «yorning qoshi», «uning huzuri—qoshidan kelmoq», «zulfiyu qoshi nomusulmon qildi» ma'nolarini anglatadi.

Beshinchi va oltinchi tuyuqlarda ishlatilgan an'anaviy. «yoqadur», «chin» so'zlari Amiriydan avvalgi shoirlar uchun ham tuyuq yaratishga xizmat etgan. Biroq Amiriy bu so'zlarning yangilangan ma'no qirralarini topadi:

Ul pari jonimg'a o'tlar yoqadur
(jonimni o'rtaydi),
Kuygonim ko'nglig'a yaxshi yoqadur
(xush keladi, yoqadi)
Ishqida har yon tushub jaybimg'a chok,
Telbamen piyrohanim beyoqadur
(yoqasiz).

Navxatim zulfidin ochg'on chog'da chin
(qulfochish),
Munfaildur mushkdin ohuyi Chin.
(Chin ohusi),
Mochin zulfi purtobidadur,
Bu so'zum yalg'on emastur, barcha chin
(rost).

Amiriy «chin» so'zining yanada ko'proq ma'nolarini topib, shu radifda yetti baytli g'azal ham yaratgan. Unda «chin» tajnisi —rost, haqiqat, tugun, kishi yuzida uchraydigan ajin, Sharqiy Turkiston (Chin o'lkasi nomi), yor zulfining halqasi ma'nolarida ishlatilgan.

Amiriy turkigo'y shoirlar orasida Mavlono Lutfiy va Mavlono Fuzuliy merosini ham mukammal bilgan va ularning g'azallariga muxammaslar bog'lagan. Lutfiyning «Ey sanavbar bo'yli dilbar, fikri hijron qilmag'il» (besh baytli), «Ishq tushsa har ko'ngulg'a dardu g'amdin chora yo'q» (to'rt baytli), «Nortek yonoqlaring kibi sham' anjumanda yo'q» (yetti baytli), «Ey, jafodin bir zamon ko'ngli pushaymon bo'lmog'on» (yetti baytli) misralar bilan boshlanuvchi ishqiy-so'fiyona g'azallariga ham mahorat bilan muxammaslar bog'ladi.

Manbalarda aytilishicha, Amiriy davridagi Qo'qon adabiy muhitida shirinzabon lirik shoir Fuzuliy asarlariga qiziqish juda katta bo'lgan, uning devonlari ko'p nusxalarda kitobat qilingan. Qo'qon shoirlaridan bir qanchasi Fuzuliy tili va uslubida lirik she'rlar yaratganlar. G'oziy, Mahzuna, Xon—Madalixon, Uvaysiy, Amiriy she'riyatida bu hol yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Amiriy Fuzuliyning hofizu-xonandalar repertuaridan keng joy olgan:

Go 'shai abro 'larinda chashmi jodularmidur,
Yo'qsa kirmish yoya tirandoz hindularmidur...

Shifoyi vasl qadrin hajr ila bemor o'landan so'r,
Zuloli zavq-shavqin tashnayi diydor o'landan so 'r

matla'li g'azallariga mahorat bilan muxammaslar bitdi.

Uning kimsan Jomiy, Kamol va Bedildek forsiy tildagi adabiyotning daholari misralari barobaridagi misralar yaratishga intilganligi ham Amiriy quvvai hofizasi va intellektual qobiliyatining kuchliligidan dalolat berib turadi. Shuning uchun, o'z navbatida, ustoz darajasiga ko'tarilgan Amiriyning shuarolar silsilasida muxlislari, ijodiy ta'lim oluvchilari paydo bo'ldi. Uning muhitida sharoit taqozasi bilan g'azallariga naziralar, payravlar, tazmin muxammaslar yozmagan shoiru shoiralar qolmadi. Hatto Qo'qondan uzoqdagi qo'shni xonliklar hududlaridagi Umarxon davridan keyingi Turkiston o'lkasidagi qanchadan-qancha shoirlar Amiriy she'rlaridan kuchli ta'sirlandilar, unga ustoz shoir sifatida murojaat qilib turdilar. Kattaqo'rg'onlik zabardast epik va lirik shoir Ochildi Miriy (1841—1899) «Muxammas bar g'azali amiri Xo'qandiy» sarlavhasi ostida Amiriyning «Sallamno», «Ko'rung», «Ey, soqiy» radifli g'azallariga,

Qoshingg'a teguzmag'qalamni,

Bu xat bila buzmag'il raqamni

matla'li go'zal she'riga ajoyib muxammaslar bog'ladi. U o'zining amir so'ziga ma'nodosh Miriy taxallusi bilan ijod qilayotganligidan faxrlandi. Olis Xiva xonligidagi Feruz davri adabiyotining ulkan namoyandasi Ogahiy devonidagi tazmin muxammaslar ichida biz farg'onalik shoirlardan Amiriy g'azallariga bog'langanlarining guvohi bo'lamiz. Shular ichida Amiriyning mahorat bilan yozilib, hanuz hofizlar kuyida jaranglab turgan

«Lab uyur takallumga zulfni parishon qil,

Qand qimmatini sindur, narxi anbar arzon qil

matla'li g'azali ham bor.

O'zbek adabiyotining peshqadam namoyandalari — Muqimiy, Furqat, Muhyi, Nihoniy ijodini, xususan, lirik she'rlarini Amiriy she'rlari ta'sirisiz tasavvur etish qiyin. Muqimiyning beshta tazmin muxammasi Amiriy g'azallari asosida ijod qilinganligi bunga dalildir. Bu hol Amiriyning adabiyotga homiyligini, ustoz shoir sifatidagi mavqeini yanada chuqur o'rganishni taqoza

etadi. Amiriy devonining eng yaxshi ko'lyozmasi asosida filologiya fanlari doktori Mahbuba Qodirova 1972 yili she'rlarini «Devon» nomi bilan chop ettirdi, unga ancha tafsiliy kirish so'z yozdi. Bungacha ham uning she'rlaridan namunalar 1945 yili nashr qilingan. Amiriy tomonidan devoniga yozilgan debocha adog'ida unga kiritilgan she'rlarning yozilish tarixi, tartib berilishi hamda «so'z gavharlarining sarroflari» va zufununlar maslahatlari bilan devon tarzida kitobat qilinishiga doir fikrlar keltirilgan. 1972 yili Toshkentda chop qilingan «Devon»dan 216 g'azal, 6 mustaqil muxammas, 3 musaddas, 6 tuyuq, Navoiy, Lutfiy, Jomiy, Fuzuliy, Mirzo Bedil hamda Zaliliy, Kamol, Nobiy g'azallariga bog'langan tazmin muxammaslar joy olgan. Amiriy tomonidan devoniga yozilgan debocha adog'ida unga kiritilgan she'rlarning yozilish tarixi, tartib berilishi hamda «so'z gavharlarining sarroflari» va zufununlar maslahatlari bilan devon tarzida kitobat qilinishiga doir fikrlar keltirilgan.⁵

⁵ R. Orzibekov. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 2006. 173-176-betlar.

II. BOB. Amiriy ijodida Navoiy ijodining badiiy ta'siri

O'zbek xalqi ma'naviy dunyosining shakllanishiga g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan ulug' zotlardan yana biri-bu Alisher Navoiy bobomizdir. Biz uning mo'tabar nomi, ijodiy merosining boqiyliigi, badiiy dahosi zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqida doimo faxrlanib so'z yuritamiz.

G'azal mulkining sultoni hisoblanmish Alisher Navoiy adabiy merosi turkiy she'riyat hamda umumsharq adabiyotining eng ilg'or an'alarini o'zida mujassam etgan yangi va yuqori bosqich hisoblanadi.

Alisher Navoiy ijodining tub mohiyati falsafiy, ijtimoiy, va estetik qarashlarining yuksak poetik shakldagi ifodasi bo'lganligi bilan xarakterlanadi.

Alisher Navoiy she'riyatini to'laligicha ta'rif etishga til ojiz. Navoiy she'riyati nazm olamining eng noyob durdonasi va nazm ichra mo'jizalarning mo'jizasi hisoblanadi.

U hayot tomirlaridagi ichki harakatni, davr yuragidagi murakkab ritmni chuqur his eta oladigan zukko olim va siyosat arbobidir.

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy ma'naviyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g'ururi, shanu sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir. Ta'bir joiz bo'lsa, olamda turkey va forsiy tilde so'zlovchi biron-bir inson yo'qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa. Prezidentimiz Navoiy shaxsini shunday ulug'laydi: «Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir».⁶

Amiriy ijodini ayniqsa Alisher Navoiy an'analari bilan bog'lovchi jihatlar turli shakllarda namoyon bo'ladi. Birinchi navbatda, Amiriy ham Navoiydek ma'rifatli, diyonatli shaxs, davlat arbobi bo'lishga, yurt-el tinchligi va osoyishtaligini saqlashga, madaniyat hamda adabiyotga homiy bo'lishga intildi.

⁶И.Каримов.Юксак манавият-енгилмас куч.Тошкент«МАНАВИЯТ»2010,47-бет.

Mir Alisher Navoiydek she'r amiri bo'lishni orzu qildi, shu yo'lda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Uning Amiriy so'zini taxallus sifatida tanlashida ham ramziy ma'no, Navoiyga ergashish, ehtirom bor. Mir va amir so'zlarida shohlik va hukmdorlik ma'nolaridan tashqari, she'riyatda nom chiqarish, kuchli iz qoldirish ma'nolari ham bo'lsa kerak. Zero, asarlarining bir joyida Saidumarbek o'zining ishq ahlining shohi, amiri ekanligiga ham ishora qiladi. Ikkinchidan, u badiiy ijoddagi an'analarga sodiq bo'lib, Navoiyni o'ziga birinchi madadkor, ustoz sifatida tanlaydi. Navoiy asarlarini ko'p nusxalarda ko'chirtiradi, she'riyat darsligiga aylantiradi. Navoiy an'alarining Qo'qon adabiy muhitida keng tarqalishini ta'minlaydi. Navoiy dahosidan ta'sirlanib g'azallar, muxammaslar ijod qiladi.

Alisher Navoiyning Amiriy she'riyatiga ta'siri uch xil shaklda ko'zga tashlanadi:

1. Amiriyning ishq mulkining shohi sifatida Navoiyning haqiqiy va majoziy ishqni tarannum etuvchi lirik she'rlaridagi insonparvarlik tuyg'ulari, komil inson haqidagi umumbashariy g'oyalaridan ta'sirlanib, ularni ma'qullab, o'z davri sharoiti va talabiga ko'ra ularni boyitish, davom ettirish;

2. Shu maqsadda Navoiyning she'riyat muxlislari orasida keng tarqalgan, sevib kuylangan g'azallariga nazirasifat she'rlar yaratish. Navoiy g'azallari ohangi va shaklida yangi g'azallar, she'rlar yaratish;

3. Nihoyat, Navoiyning eng sara g'azallariga tazmin (taxmis) muxammaslar yaratish. Zero, adabiy ta'sirning bu so'nggi shaklida Amiriyning Navoiy ijodiga nechog'li baland hurmat bilan qaraganligi ko'proq namoyon bo'ladi.

2.1 Amiriy she'riyatida Navoiy g'azallariga tazmin muxammaslar badiiyati

Amiriy qalamiga mansub o'ttizdan ziyodroq tazmin muxammaslarning yigirma beshtasi Navoiyning shoh g'azallariga bog'langanligi shu davoni isbotlay oladi.

O'zbek mumtoz she'riyatida tazmin muxammaslar ustoz shoirdan tajriba o'rganish, kuch sinash, o'z misra va baytlarini ustoz misra, baytlari mezonida turib

baholash, adabiy ta'lim olish, shu asnoda o'z ijodiy imkoniyatlarini sinovdan o'tkazish vositasi bo'lib kelgan.

Bir pari pay kar xati la'lini sharh ettim Amir...

Bu g'azalning «Zeri mashqidur Navoiy daftari» baytidan uning badiiy ijodga qo'l urishi, mashqiy izlanishlari Navoiy asarlari mutolaasidan boshlanganligini ko'rsatadi. Amiriy devonidagi anchayin g'azallar Navoiy g'azallariga nazira, o'xshatma tarzida maydonga kelgan g'azallardir. Ularning ko'plari Navoiy qo'llagan aruz vaznlarida, asosan, ramal bahri vaznlarida, qofiya, radiflarda bitilgan. Buyuk shoir mahorat bilan ishlatgan ma'nodor so'zlar, badiiy-tasviriy vositalar, ma'naviy hamda lafziy san'atlar Amiriy g'azallariga ham ko'chgandek, uning g'azallariga ham go'zallik bag'ishlagandek seziladi.

Amiriyning:

Orazin pinhon qilur qonli yoshim ko'rgach Amir,

Oyiaxim yog'in kuni tushmush quyosh uzra sahob...

baytiga ko'zingiz tushsa, beixtiyor Navoiyning

Orazin yopqoch ko'zimdin sochilur har lahza yosh,

Boyiaxim pay do bo'lur yulduz, nihon bo'lg'och quyosh—

bayti xotirangizga keladi.

Yoki Amiriyning «Zeb» radifli g'azali tarkibidagi:

Ishq hayrat ashkidin chehramni gulgun ayladi,

Topti ul naqqoshdin bu surati devor zeb~

baytini mulohaza qilganingizda, Navoiyning

Keldi chin naqqoshi ul yuz tarhini qilmoqqa naqsh,

Chehra ochib naqshi devor ayladi naqqoshni—

baytini eslamaymizmi?

Amiriyning tazmin muxammaslarida, ayniqsa, uning Navoiy baytlaridagi ma'no va badiiy-poetik jihatlariga yondashishdagi izlanishlar, hayotiy detallar topib ishlatishdagi mahorat yanada yaqqolroq, aniqroq namoyon bo'ladi.

«Xazoyin ul-maoniy» devonlaridan joy olgan

Topg'ali xoki tanimg'a novaki ishqing kushod...
Oyia hijron toshlarin yog'durli charxi tez gard...
Qasrning har kungiri uzra balo toshimidur...
Yo'q damekim furqati jonimg'a bedod aylamak...
Muhabbat shevasining lozimi ajzu niyoz ermish...
Lolazor ermaski, ohimdin jahonga tushti o't...
Donai xoling bila ko'nglum qushin rom aylading...
Ko'nglum o'rtansun agar g'ayriga parvo aylasa...

Bunday muxammaslarning adadi yigirma beshga boradi. Biz oxirgi misra sifatida keltirgan «Aylasa» radifidagi Navoiy g'azaliga nazira, muxammas yozmagan shoir yo'q darajada. XVI-XIX asrlar orasida yashab, ijod etgan deyarli barcha mashhur qalam sohiblari bu g'azalga yo nazira, yo tazmin, yo taxmis yozganlar. Natijada shu g'azal vaznida, radifida, mavzuida yuzlab navoiyona g'azallar maydonga kelgan. Ba'zilar nazirai benazir, ba'zilar esa taqlidnamo she'rlar sifatida baholangan. Alisher Navoiyning bu g'azali o'n baytdan iborat bo'lib, aruzdagi eng o'ynoqi, ohangdor bahr - ramalning «ramali musammani mahzuf» vaznida yozilgan. Uning taqti'i (paradigmasi):

foilotun foilotun foilotun foilun

-V-- -V-- -V-- -V-

G'azalda Navoiy o'ta vafodor, ahdiga sodiq oshiqning yurak monologini, va'dalarini, aytish mumkinki, ishq yo'lidagi qasamyodini bergan. Oshiq har qanday mushkul sharoitlarda ham raqiblar qarshiligini sindirib o'z yoriga qalqon bo'lishga intiladi. Shu yo'lda u dahr-dunning zulmi, bedodlarning tazyiqiga ham chidashga

tayyor. Bu uning komilligidan dalolat beradi. Amiriy shu g'azalning to'qqiz baytiga muxammas bog'lagan ko'rinadi. Uning muxammasi tarkibida Navoiy g'azalidagi yettinchi bayt:

Ofiyat jonimg'a yetti, ey xush ul, mug'kim meni,
Bir qadah birla xarobot ichra rasvo aylasa

uchramaydi. Tazmin muxammaschilikda bunday faktlar uchrab turadi. G'azalga tazmin bog'layotgan shoir g'azaldagi ba'zi baytlarni tushirib qoldirishi mumkin. Bu muxammasning eng afzal tomoni shundaki, o'zini ishq dunyosining amiri deb bilgan shoir oshiqona tuyg'ularini lirik qahramoniga ko'chirib, Navoiy lirik qahramoni tomonidan izhor qilingan samimiy tuyg'ularni rivojlantirgan, undagi yangi qirralarni ochishga muvaffaq bo'lgan. Amiriy ham salafi Navoiydek o'zi pok, dili pok, tili pok, niyati pok, yuzi pok ideal oshiq obrazini namoyon etganki, bunda tasavvufiy nazokat va ehtiroslar ham sado bergandek tuyuladi. Bu holatni Navoiy baytlariga qo'shilgan uchliklar payvandi orqali yaqqol his qilish mumkin:

Boshim o'lsun poymol ar tarki savdo aylasa,
Xira bo'lsun ko'z jamolingdin tabarro aylasa,
Jong'a o't tushsin bo'lak dilbar tamanno aylasa,
«Ko'nglum o'rtansun agar g'ayringg'a parvo aylasa,
Har ko'ngul ham kim sening shavqingni paydo aylasa»..

Sendin o'zga yor paydo aylasam chiqsun ko'zum,
G'ayr diydorin tamanno aylasam chiqsun ko'zum,
Gar party ruxsorig'a vo aylasam chiqsun ko'zum,
«O'zgalar husnun tamosho aylasam chiqsun ko'zum,
O'zga bir ko'z hamki husnungni tamosho aylasa».

Necha vasfing bog'ida tutimisol o'lsun tilim,
La'li nobing sharhida shirinmaqol o'lsun tilim,
O'zgalar harfini insho qilsa nol o'lsun tilim,
«G'ayr zikrin oshkoro qilsa lol o'lsun tilim,
Qaysi bir til hamki, zikring oshkoro aylasa».

Amiriyning nashr etilgan «Devon»iga kiritilmay qolgan bir tazmin muxammasida uning Navoiy g'azallaridangina emas, balki dostonlaridagi obrazlardan ham ta'sirlanib misralar ijod etganligini ko'ramiz. Chunonchi, u bu muxammasida «Farhod va Shirin» dostonidagi qahramonlarni eslab Xusrav tog'qazuvchi Farhod ishqining qadriga qayerdan yetsin, deb yozadi. Kontrast tasvir orqali Farhodning ulug'ligini sharaflaydi.

Amiriyning g'azal, muxammas, musaddas va tuyuqlarida Navoiy dostonlari va lirik asarlaridagi timsollarga, naqlarga, rivoyatlarga ishora qilib, ularga qiyoslab yaratilganva badiiy ijodda talmih deb atalgan san'at namunalarini tez-tez uchratib turamiz. Amiriy Navoiy g'azallariga bog'langan ayrim muxammaslarida Navoiy g'azallarida kuylangan oshiq dardlarini izchil kengaytirib, uni sevgi qissasi darajasiga chiqarishga, sevgi, hijron va visol haqidagi qissani to'ldirishga erishadi. Uning «O'lmisham» radifli muxammasida shunday. Amiriyning Navoiy baytiga chirmoshtirgan quyidagi uchligida Navoiy baytidagi mazmunga mos «Men mahbub firoqida qayg'ularimni devor ustiga naqsh etarman, devor-la turib sirimni oshkor etmoqchiman, shu umidda devor osha termulaman», deb oh chekadi. Bu tasvirda hayotda uchrab turgan hodisalardan ilhom olish, kuzatuvchanlik, ularni badiiy ijodda tasvirlash holatlari namoyon bo'ladi.

Furqatingdin naqsh etgaymen, so'zum devor uza,
Fosh etay dardim tasalli-chun, o 'zum devor uza,
Telmurar vasling umidi-la ko'zum devor uza,
«Kecha tengrang aylanib, kunduz yuzum devor uza,
Uylaki, parvonadin go'yo nomudor o'lmisham».

Bu muxammas besh banddan—beshlamadan iborat.⁷

Demak Amiriy she'riyatida Navoiy g'azallariga tazmin muxammaslar badiiyatini o'rganayotganda tamomila dunyoviy, oddiy insoniy his-tuyg'ularni va kechinmalarni yuksak baadiyat bilan kuylangan lirikani tahlil qilishimiz va uning badiiy ta'sirini ochib berishga urinishimiz zarurdir.

2.2 Amiriy va Navoiy ijodida tasvir mahoratining hamohangligi

O'zbek adabiyotida g'azal va undagi obrazlar shu darajada rivojlanib, takomillashib ketdiki, ayrim g'azallardagi bir qator obrazlar (yor, zulf, xol, may, xat) majozilik doirasini kengaytirib, tasavvufiy ma'nolarni talqin etishga ham o'tdi. Mumtoz adabiyotimiz tarixida tasvir mahorati jihatidan Navoiyga teng keladigan ijodkor bo'lmasa kerak. Amiriy ijodida esa Navoiy ijodidagi tasvir mahoratining hamohangligini kuzatamiz. Biz Amiriy va Navoiy ijodidagi mashshota obrazining tasvirida o'xshashlikni ko'rishimiz mumkin.

Amiriy mumtoz lirikadagi an'anaviy obrazlarga, tasvirlarga ba'zan ergashib, yorni jannat hurlaridan, farishtalaridan ham ustun qo'yadi. Uningcha, yor visolining o'zi jannat, naqdiga shukr qilmoq, uning visoli bilan ovunmoq kerak:

Kavsarim-sharobingdur, jannatim erur vasling,

Naqd sensen, ey soqiy, nasya-huru g'ilmonlar.

Bu baytni ikki xil talqin etish ham mumkin. Balki, shoir bu yerda e'tiqodli musulmon, Ollohning oshig'i sifatida uning vasliga intilayotgandir. U ba'zan murakkab istiorali baytlar orqali o'zining samimiy oshiq ekanligini izhor etadi. Masalan, quyidagi baytda «Sevikli yor mening ko'zimdan yiroqlashib chodir ichida yashirindi. Uning visoli yo'lidagi kuyib-yonishlarim, yuragimdan chiqarayotgan ohim tutunlari yorga ozor etmasligi uchun shu chodirga ustun bo'ldi» kabi o'ta mubolag'ali, biroq boshqa shoirlar kam ishlatgan tasvir keltiradi:

To nazardin ul mahi xirgohnishin bo'ldi nihon,

Dudi ohim osmon xirgohiga bo'ldi stun.

⁷Amiriy. O'zbek adabiyoti tarixi. Majmua-xrestomatiya, 4-jild. -T., 1960.

Amiriyning quyidagi baytida an'anaviy tasvir bilan birga, yangilik, yangi detallar ham bor. Yorning yuzidagi xol qor ustida turgan qora zog'ga o'xshaydi. Shundayam qorday oppoq, momiq yuzda zog'day timqora xolning joylashganligi oshiqni oshufta hol qiladi:

Xoli hindusi binogo'shini ravshan ayladi,
Faslday topg'on kibi zog'i siyahdin qor zeb.

Amiriy ishqiy she'riyatda portret tasviri ustasidir. U bu an'anaviy tasvirda o'z ijodiy laboratoriyasini yaratishga intiladi. Ayniqsa, u tasvir etgan oshiq mahbubaning tashqi suratini shu qadar go'zal tarzda tasavvur etadiki, ular asosida behzodona miniatyur naqshlar galereyasini chizish mumkin. Ko'z, qosh, lab, xol, gajak, kokul, qomat oshiqni ne-ne iztiroblarga, shirin xayollarga solmaydi. Ba'zan yor kipriklari ham saf tortib turgan chokarlarga (lashkarlarga) o'xshatiladi. Egri va makkor qosh esa, urush payti qo'llaniladigan kamondir.

Mashshota mumtoz adabiyotda anchayin keng qo'llangan. "Mashshota" obrazi Amiriy o'z g'azallarida keng foydalandi. Masalan, Amiriy ijodiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u "mashshota" obrazini birgina "pardozchi" ma'nosida emas balki, boshqa ma'nolarda ham qo'lladi. Dastlab "mashshota" obrazi "pardozchi" ma'nosida qo'llanilgan baytlarni ko'rib chiqamiz.

Berma , ey mashshota , xattu xol ila zulfiga zeb ,

Ko'rmasun el fitna , oshubi balo qo'zg'olmasun.⁸

Ya'ni: Ey pardozchi , sen ma'shuqaning husniga oro berma. Chunki uning o'zi shunchalar go'zal. Agar sen uni yanada chiroyli qilsang, xalq ma'shuqaning g'amida jabr ko'radi, ofat qo'zg'aladi. Amiriyning "Sunbuli zulfingni tarqatma, sabo qo'zg'almasun!" misrasi bilan boshlanuvchi g'azalidagi bu baytda "mashshota" obrazi "pardozchi" ma'nosida qo'llangan. Keyingi baytlarda ham bu obraz "pardozchi" ma'nosida ishlatilgan.

Parishonholmen mashshota ilgi rashkidin har dam ,
Aning sochiga borib , xasta ko'nglimdin tarog' o'lsun!

⁸ Amiriy. Qoshing'ga teguzmag'il qalamni. T. 2008. 300-bet

Ya'ni; Pardozchi yorimni sochini turmaklaganda , uning qo'ldan yorimning sochlarini rashk qilaman. Bu rashkdan esa meni ko'nglim yaralanadi. Qani endi ana shu yaralangan ko'nglim yorimning sochlariga borib taroq bo'lsa!

Ko'ngul hasrat bilan qon o'ldi , ey mashshota , rahm ayla ,
Ani man etmagil , ul siymbar ilgi xinosidin.⁹

Ya'ni: Mening ko'nglim yorimning qo'lidagi xinoni ko'rib qon bo'ldi. Ey pardozchi sen buni rostligini bilasan. Menga rahm-shavqat qil. Bilib turib buni rad etishga urinmagin.

Keyingi baytda ham “mashshota” “pardozchi” ma'nosida qo'llangan.

Ko'nglumi jam'iyati xushtur parishon zulfida ,
Rahm qilg'il , tegma , ey mashshota , to qo'zg'olmasun!

Ya'ni: Yorimning sochlari jipsligidan mening ko'nglim xushtur. Ey pardozchi menga rahm qil yorimning bu jips sochlarini tarqatib yuborma. Agar tarqatib yuborsang mening ko'nglim ham uning sochlaridek parishon bo'ladi. Keyingi baytlarda “mashshota” obrazi boshqa ma'nolarda ishlatilgan. Masalan: Shoirning “Zihi soniki, andin bor o'lub olam aro ashyo” misrasi bilan bshlanuvchi g'azalida bu obraz Ollohn nazarda tutish ma'nosida ishlatilgan.

Tariqi ishq ko'rsatmak uchun mashshotai qudrat,
Tarog'lar chekti Majnun ko'ngli birla turrai Laylo.¹⁰

Ya'ni : Olloh ishqning qudratini ko'rsatmoqlik niyatida Majnun ko'nglini Layloning o'rilgan sochlariga bog'ladi.

Amiriyning keyingi g'azallarida “mashshota” obrazi qo'llanilmagan. Ammo yashirin mashshota borligi sezilib turadi. Masalan,

⁹ Amiriy.Qoshing'ga teguzmag'il qalamni. T. 2008. 302-bet

¹⁰ Amiriy.Qoshing'ga teguzmag'il qalamni. T. 2008. 40-bet

uning “Yor ochti shona birla sunbulidin toblar” misrasi bilan boshlanuvchi gʻazalida yashirin mashshota – maʼshuqa boʻlib kelgan.

Yor ochti shona birla sunbulidin toblar ,

Boʻldi sargardon Xoʻtan dashtida mushki noblar.

Yaʼni: Bu baytda pardozi - maʼshuqaning oʻzi. Maʼshuqa hushboʻy hidli sochlari taroq bilan taragan edi , uning sochidan tarqalgan hushboʻy hidga chidayolmagan mushki nob (oʻta hushboʻy , toza mushk) Xoʻtan dashtida (Xoʻtan –shahar nomi. Klassik adabiyotda bu shaharni husndor ayollari , aʼlo mushklari va nafis ipakli matolari bilan maqtaydilar. Shu sababli “Xoʻtan” soʻzi koʻp oʻrinlarda oʻxshatish uchun ishlatiladi) sarsonu – sargardon boʻlib qoldi.

Keyingi baytda ham yashirin mashshota –maʼshuqaning oʻzi.

Ruh toyiri zulfi xamlariga band oʻlmish ,

Shona chekma beparvo , xasta boʻlmasun jonlar.¹¹

Yaʼni: Afsonaviy yirik bir qush sening qora sochlaringni jingalak joylariga maftun boʻlganidan shu yerga chirmashib , oʻralashib qolgan .Ey yor ,sen sochlaringni tarayotganingda beparvo boʻlma ,ehtiyot boʻlib taragin. Boʻlmasa tirik jonga ozor yetkazasan .Bu yerda afsonaviy yirik bir qush deb lirik qahramon koʻzda tutilayapti.

Koʻrunsa shona yangligʻ zulfidin yuz choklik koʻnglum ,

Parishon xotiri ul turrai terror dermishlar.

Yaʼni: Ey maʼshuqa sen dilni oʻgʻirlovchi sochlaringga oro berganingda mening koʻnglim yuz boʻlakka boʻlinadi va bu dilni oʻgʻirlovchi sochlaringni koʻrganimda esdan ogʻib qolaman. Bu baytda ham yashirin mashshota -maʼshuqaning oʻzi.

Amiriyning “Shohi gulni sinduran tarfi kulohingdur sening” misrasi bilan boshlanuvchi gʻazalida “pardozi” obrazi yoʻq. Ammo shona(

¹¹ Amiriy.Qoshingʻa teguzmagʻil qalamni. T. 2008. 108-bet

taroq) so‘zi ishlatilgan. Taroq-pardozchining asbob-uskunasi. Shuning uchun ham bu bayt qaysidir ma’noda bizning mavzumizga taalluqli.

Shoxi gulni sinduran tarfi kulohingdur sening,

Shona ham domkim, zulfi siyohingdir sening.

Ya’ni: Yorning boshidagi toj go‘zallikda gulning shoxini sindiradi. Ammo, bu toj shunchaki bir kishilarni chalg‘itadigan hiyla, tuzoq. Aslida hamma narsani dog‘da qoldiradigan bu-sening qora sochlaringdir.

Keyingi baytda ham yuqoridagi kabi “pardozchi” obrazi yo‘q. Ammo, taroq so‘zi ishlatilgan.

Parishon etti sochi shonadek ko‘nglum havosini,

Netaykim, g‘uncha yanglig‘ jam‘i somonimni sog‘indim.

Birinchi misradagi shona so‘zi tarog‘ ma’nosida kelib, bu misradan quyidagicha ma’no anglashiladi. Ya’ni: Mening ko‘nglimni orzu-istaklarini yorimning sochlari xuddi sochlarini taraganda paydo bo‘ladigan tarqoqlik kabi tarqatib yubordi. Bundan tashqari Amiriyning “Tarog‘” radifli g‘azali bo‘lib, bu g‘azalida “mashshota” obrazi bir nechta o‘rinlarda qo‘llanilgan. Bu obraz ba’zi bir o‘rinda ochiq tarzda kelsa, ba’zi bir o‘rinda yashirin tarzda, ba’zi bir o‘rinda “pardozchi” ma’nosida kelsa ba’zi bir o‘rinlarda boshqa ma’nolarda qo‘llanilgan. G‘azal radifidagi taroq- bu oshiq timsolidir.

Savodi zulfing aro istadi farog‘ tarog‘,

Ajab emaski, bu savdoda bo‘lsa dog‘ tarog‘.

Chu sar sunbulini shona qilmoq etti havas,

Sanubar ayladi shamshoddin so‘rog‘ tarog‘.

Magarki telba erur, aylabon yaqosini chok,

Soching salosilidin chekmadi ayog‘ tarog‘

Chu ko‘rdi shohidi sunbul kamandi zulfungni,

Soching yulub –yulubon tashladi tarog‘-tarog‘.

Soching savodida ruhsoring orzu qildi ,
Kecha qorong‘u edi ,istadi charo‘ tarog‘.

Nasim moshitasi shone qildi zulfingni ,
O‘zin kanora chekib ,bo‘ldi bedimog‘ tarog‘.

Sochida shonani gustoh ko‘rdimu, aydim-
Ki: “Bu ilonlar ichida qolurmu sog‘ tarog‘?”¹²

G‘azalni baytma - bayt tahlilini ko‘rib chiqamiz.

Savodi zulfing aro istadi farog‘ tarog‘,
Ajab emaski, bu savdoda bo‘lsa dog‘ tarog‘

Ya‘ni: Oshiq sening sochlaringni sirini bilishni istadi. Chunki, uning qalbini zabt etgan sening qora sochlaring edi. Ammo, u bu niyatiga yetisholmay adoyi tamom bo‘lishi mumkin.

Chu sar sunbulini shona qilmoq etti havas,
Sanubar ayladi shamshoddin so‘rog‘ tarog‘.

Ya‘ni: Sarv yorning sochlarini taramoqni istagan edi, Sanubar Sarvga yordam berish maqsadida shamshoddan tarog‘ so‘radi.

Magarki telba erur, aylabon yaqosini chok,
Soching salosilidin chekmadi ayog‘ tarog‘.

Ya‘ni: Agar oshiq yor ishqida yaqosini chok qilib telba bo‘lsa ham ,yorining bu qora sochlaridan umid uzolmadi.

Chu ko‘rdi shohidi sunbul kamandi zulfungni ,
Soching yulub –yulubon tashladi tarog‘ -tarog‘.

Soching savodida ruhsoring orzu qildi ,

¹²Amiriy.Qoshingg‘a teguzmag‘il qalamni. T. 2008. 300-bet

Kecha qorong‘u edi ,istadi charog‘ tarog‘.

Ya’ni: Oshiq yorining yuzlarini ko‘rishni istadi. Ammo ma’shuqaning o‘rilgan qora sochlari unga tuzoq bo‘lib , to‘sqinlik qilayotgan edi. Buni ko‘rgan oshiq yorining bu o‘rilgan sochlarini yoyib yubordi. Shundan so‘ng yorining yuzlarini ko‘rishga erishdi. Bu baytda yashirin mashshota-oshiq .

Nasim moshitasi shona qildi zulfigni ,

O‘zin kanora chekib ,bo‘ldi bedimog‘ tarog‘.

Ya’ni: Yuqoridagi baytda oshiq nihoyat maqsadiga yetib ,yorining yuzini ko‘rishga erishgan edi. Shu payt birdaniga shamol bo‘ldi-yu, shamol ma’shuqaning sochlarini taradi. O‘zining cheklatilganini ko‘rgan tarog‘ ya’ni oshiq bundan xafa bo‘ldi. Chunki, oshiq ma’shuqasining sochlarini o‘zi taramoqchi edi.

Sochida shonani gustoh ko‘rdimu, aydim-

Ki: “Bu ilonlar ichida qolurmu sog‘ tarog‘?”

Ya’ni: Yorimning sochlarini tarayotgan beadab, andishasiz tarog‘ni ko‘rdimu, aytdim. “Nahotki, shu ilonlar ichida sog‘ qolsa bu tarog‘?” Bu misrada ilonlar deya ma’shuqaning sochlari nazarda tutilyapti.

G‘azal mulkining sultoni hisoblanmish Alisher Navoiy adabiy merosi turkiy she’riyat hamda umumsharq adabiyotining eng ilg‘or an‘analarini o‘zida mujassam etgan yangi va yuqori bosqich hisoblanadi.

Alisher Navoiy she’riyatini to‘laligicha ta’rif etishga til ojiz. Navoiy she’riyati nazm olamining eng noyob durdonasi va nazm ichra mo‘jizalarning mo‘jizasi hisoblanadi.

U hayot tomirlaridagi ichki harakatni , davr yuragidagi murakkab ritmni chuqur his eta oladigan zukko olim va siyosat arbobidir.

Alisher Navoiy lirik shoirdir. U lirik poeziyani faqat tematika va g‘oyaviy mazmun jihatidan emas , balki badiiy jihatdan ham yangi taraqqiyot pog‘onasiga ko‘tardi shakl va mazmuning uzviy birligi uchun kurashgan Navoiy o‘z lirik she’rlarining mazmuniga mos va muvofiq badiiy forma yaratdi. U lirikaning xilma-xil janrlarida she’rlar bitdi , bu janrlarning

takomiliga katta hissa qo'shdi, yangi- yangi obraz va xarakterlar, peyzaj va portretlar yaratdi, realistik tasvir tendensiyalarini rivojlantirdi, insonning murakkab his- tuyg'usini, ruhiy kechinmalarini mohirlik bilan ifodalab, turli- turli adabiy usul va badiiy til vositalari qo'lladi, xalq og'zaki poetikasidan foydalandi. U ijodida bolalarning o'yinidan shohlarning siyosatiga qadar, oddiy maishiy hayot detallaridan tabiat hodisalariga qadar – barchasiga murojaat etadi, yangi obraz va lavhalar yaratdi.¹³

Navoiy lirikasida oshiq, yor, rind, raqib, shayx, zohid, voiz, podsho va boshqa obrazlar ham uchraydi. U yaratgan oshiq va yor obrazlarida samimiy sevgi, sadoqat, vafo va boshqa ezgu insoniy fazilatlar tarannum etiladi.

Navoiy xo'rlangan, jabrlangan xotin- qizlarni e'zozlaydi, sharaflaydi. U yordan shikoyat qilish orqali ko'pincha yashagan muhitining adolatsizligi insofsizligidan noliydi. Shuning uchun ham Navoiy zolim yorni adolatsiz davlatmandga, shafqatsiz jallodga o'xshatadi. Tung obrazining muhim xususiyati shundaki, u xuddi xalq qahramoni afandi kabi jur'at va shijoat bilan zulm – zo'rlik ustidan kuladi, hayot illatlarini fosh etadi.

Navoiy haroratli ishqiy g'azallar bilan birga ijtimoiy – siyosiy mavzularda ham g'azallar bitdi, shayx – zohidlarni, voizlarni fosh qiluvchi hajviy g'azallar yaratdi, oshiq, yor, raqib va rind obrazlari bilan chegaralanib qolmadi, obrazlar turkumiga mutafakkir va murabbiy obrazlarini hamda shohlarni, shayx – zohid va voizlarni kiritdi. U mana shunday bir qancha obrazlar qatorida “mashshota” obrazidan ham salmoqli foydalandi. Bu obraz eng ko'p qo'llanish jihatidan Navoiy ijodida uchraydi. Navoiy ijodida bu obrazni birgina “pardozchi” ma'nosida emas, balki boshqa ma'nolarda ham qo'lladi. Dastlab bu obrazning “pardozchi” ma'nosida qo'llangan baytlarini ko'rib chiqamiz.

13Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Т. «Ўқитувчи» 1967. 400-бет.

Navoiyning “Navodir ush – shabob” devoniga kiritilgan “Har gahki qadahno‘shin mayli mayi nob aylar” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azalining bir baytida “mashshota” obrazi “pardozchi” ma’nosida qo‘llanilgan.

Betob ko‘ngullardin qon oqsa ajab ermas,

Mashshota aning zulfin bu nav’ki tob aylar.

Ya’ni: ma’shuqaning go‘zalligidan oshiqqlarning ko‘ngillari yaralangan. Endi bu yaralangan ko‘ngillardan qon oqsa, hech ham ajablanmang. Chunki, pardozchi ma’shuqaning sochlariga shunchalik oro berib jingalak qilyaptiki, bundan ozor chekmaslikning iloji yo‘q.

Buyurg‘ilki mashshota xoling qo‘yarg‘a,

Ko‘zum mardumin tig‘ uchi qirdeg.

Bilamizki, pardozchi ma’shuqaning sochlarini taraydi, turmaklaydi, oro beradi, yuzlarini pardozlaydi. Ana shu yuzini pardozlash jarayonida uni yanada chiroyli qilish uchun xol qo‘yadi. Yuqoridagi baytda oshiqning ma’shuqaga qarata aytgan iltimosi ifodalangan. Ya’ni: ey yorim, pardozchi sening yuzingni pardozlayotgan vaqtda unga buyurgilki, sening yuzingga xol qo‘ymoqchi bo‘lsa mening ko‘zimni qorachig‘ini olib xol qilib qo‘ysin.

Gul xaridori chu ko‘pdur, bo‘lma ko‘p, ey bog‘bon,

Zeb uchun mashshota yo sotmoq uchun dallolasi.¹⁴

“Har bir pargolasi g‘am dashtining bir lolasi” misrasi bilan boshlanuvchi bu g‘azalda “mashshota” obrazi “pardozchi” ma’nosida qo‘llangan. Bu baytda lirik qahramonning oshiqqa bergan maslahati ifodalangan. Ya’ni: gul(mumtoz adabiyotda ma’shuqa turli xil narsalarga o‘xshatiladi. Masalan, chiroyli bo‘lganligi uchun gulga, qomati tik bo‘lganligi uchun sarv daraxtiga va hakoza. Bu baytda gul deb ma’shuqa nazarda tutilayapti)ning xaridori ko‘p, shuning uchun ham unga bog‘bon bo‘lishni orzu qilma. Agar bu gulga oro beradigan pardozchi yoki bu gulni sotadigan vositachi bo‘lishni o‘ylagan bo‘lsang adashasan, chunki sensiz ham bu ishni qiladigan gulning oshiqlari ko‘p.

¹⁴Навоий .Фавойид ул - кибар. Т .1990 .406-бет

Iffatingdindurmukim me'jar yuziga tushti chin ,

Yoxud anga zeb uchun mashshota solg'an chinmudur.¹⁵

Navoiyning "Sochbog'ingdin chiqqon , oyo , sunbuli purchinmudur" misrasi bilan boshlanuvchi bu g'azalida quyidagicha ma'no ifodalanadi: mumtoz adabiyotda ma'shuqaning yuzidagi ajin ham go'zallik belgisi hisoblanadi. Lirik qahramon yuqoridagi baytda bizga savol bilan murojaat etadi. Ma'shuqaning yuzidagi ajin uning hijolat bo'lganligidan tushganmi ? yoki pardozchi unga oro berayotganda go'zal qilish maqsadida atayin ajin solganmi?

Keyingi baytda keltirilgan "mashshota" obrazi "pardozchi" ma'nosida qo'llanilgan bo'lib , bu baytda pardozchining ma'shuqaga oro berishi , ya'ni: uning yuziga xol qo'yib yanada chiroyli qilishi ifodalangan.

Husni atrofida, ey mashshota, har yon qo'yma xol,

Kim, Xo'tan mulkida hindularning o'lmas madxoli.

Shoirning "Qon to'kar orazing gulgunaliq ko'rgan mahal" misrasi bilan boshlanuvchi g'azalida ham pardozchi obrazi keltirilgan. Bu baytda ham pardozchi har doimgidek o'zining ishi bilan mashg'ul.

Toqi axzar qotti barcha fitnavu bedodini,

Qoshingga mashshota go'yo vusma aylar chog'da hal.

Ya'ni: pardozchi ma'shuqaning kamon qoshlarini chiroyli qilish maqsadida o'sma uzib oldi. Uzilgan bu o'smalarni ikki kafti orasiga olib , ularni ezdi. Chunki , bu o'smalardan suv olishi kerak edi. Jabrlangan o'smalar bundan shikoyat qildi. Pardozchi ezilgan o'smani olib ma'shuqaning chiroyli qoshlariga yam – yashil qilib qo'ydi. Shikoyat qilayotgan o'smalar bundan juda ham mamnun bo'ldi. Chunki , ular ma'shuqaning visoliga yetishgan edi.

Zulfining tobini mashshotadin ochmoq emas imkon,

Dol yo lomni kim yozg'an ekin daf'i ham aylab.

¹⁵ Навоий .Фавойид ул - кибар. Т .1990 .196-бет

Navoiyning “Zotibi sun’ chu har kimga bir ishni raqam aylab” misrasi bilan boshlanuvchi g’azalining bu baytida kitobat san’ati qo’llangan bo’lib, . Kitobat san’atida ma’shuqaning biron bir a’zosi arab alifbosidagi harflarga o’xshatiladi. Ma’lumki, mumtoz adabiyotda ma’shuqaning zulf(ayollarning chakkasidan tushib turadigan jingalak, gajak soch)i arab alifbosidagi ذ(dol) va ل(lom) harflariga o’xshatiladi. Aynan shu harflarga o’xshatilishining sababi esa shu ikki harf ayollarning zulfi kabi jingalakdir. Yuqoridagi baytda quyidagicha ma’no ifodalangan. Ya’ni: ma’shuqaning jingalak sochlarini chigalini faqat pardozchigina tarqata oladi.

Gar nihon soching tarar mashshota kelsunkim, erur,

Kiprigimdin shona, ashkimdan suv, ko’z xilvat saroy.

Ya’ni: ey yorim, pardozchi sening sochlaringni yashirin tarzda taramoqchi bo’lsa kelsin. Pardozchi mening kiprigimni sening sochlaringni tarash uchun taroq qilsin, ko’z yoshlarimdan suv olib senga pardoz bersin, mening ko’zim esa unga hech kim ko’rmaydigan, kimsasiz saroy bo’lsin. Bu baytda Navoiy oshiqning kipriklarini taroqqa qiyos etayapti. Chunki, taroq bilamizki xuddi kiprik kabi taram – taram tarzda bo’ladi.

Shoirning “etmagil” radifli g’azalida ham “mashshota” obrazi ishlatilgan bo’lib, bu obraz “pardozchi” ma’nosida qo’llanilgan.

Rishtai mehr uzdum, ey mashshota, zulfiy qissasin,

Ko’p uzotib, notovon ko’nglumga chirmash etmagil.¹⁶

Bu baytda oshiqning ma’shuqadan umid uzganligi tasvirlanadi. Ya’ni: oshiq ma’shuqaning sochlarini ko’rib unga mahliyo bo’lib qolgan edi. Ammo buni ma’shuqa rad etgandan so’ng oshiq undan umidini uzdi. Ey pardozchi, yorimning sochlarini tarab, uni yanada chiroyli qilib mening yaralangan

ko’nglimga yana qayta azob berma.

Sog’inur oshiqlig’ingg’a ro’baru kelmish quyosh,

Ko’zguda mashshota har soat misolingni ko’rub.

¹⁶Навоий. Каро кузим. Т. 1988. 415-бет.

Bu baytda pardozchi ma'shuqaga maftun bo'lib qolganligi ifodalangan. Ya'ni: Pardozchi ma'shuqani har kuni pardozlayotganda uni jamolini ko'zguda ko'rib sevib qolgan. Ma'shuqa ketgandan so'ng esa oshiq ya'ni pardozchi yorini qo'msab sog'inayapti. Oshiqning bu sog'inchiga esa har tongda chiqadigan quyosh guvohdir. Demak bu baytda pardozchi oshiq tarzida ifodalangan.

Agar maygunlug'idin rang aylar bo'lsa mashshota,

Ko'zumning mardumin qo'yib, uyuub ul turfa xol uzra.¹⁷

Bu baytda oshiqning ma'shuqaga qarata aytgan so'zlari ifodalangan. Ya'ni: Pardozchi sening yuzingdagi qizillikni mayning rangidan olib yanada chiroyli qilgan bo'lsa, xol qilib qo'yish uchun qora rang izlab yurmasdan, mening ko'zimning qorachig'ini olib, ana shu qizil yuzingga xol qilib qo'ya qolsin. Bu baytda "mashshota" obrazi "pardozchi" ma'nosida qo'llangan.

Shoirning "Yuzin ko'r, qilmag'il mujgonu xattu xolidin nola" misrasi bilan boshlanuvchi g'azalida ham pardozchi obrazi qo'llanilgan.

Yuziga, ey falak, ne zeb ber, ne husn sotqilkim,

Quyosh husniga ne mashshota hojatdur, ne dallola.

Ya'ni: Ey falak, sen mening yorimga na pardozchi bo'lib oro berishingni, na eng go'zal husnni vositachi bo'lib sotishingni hojati yo'q. Buning uchun sen ovora ham bo'lib yurmagin. Chunki, uning o'zi shunchalar chiroyliki, boshqa hech qanday ortiqcha husnning keragi yo'q. Ikkinchi misrada quyosh deb ma'shuqa nazarda tutilayapti. Chunki, quyoshga ham pardozni keragi yo'q, uni o'zi tabiiy go'zaldir. U tabiiy chiroyli ekanligi uchun ma'shuqaga qiyos etilayapti.

Navoiy "Latofat oyi ul yuz shomi savdo sunbuli tobing" misrasi bilan boshlanuvchi g'azalining bir baytida ham "mashshota" obrazidan foydalangan. Bu baytda pardozchi har doimgidek o'zining ishi bilan mashg'ul. Xattoki pardozchi ma'shuqani obi hayvon (tiriklik suvi) suvi bilan bezamoqda.

Bezarda orazing mashshota hayvon chashmasi ichra,

¹⁷ А. Навоий. Наводир-ун нихоя. Т. 1987. 489-бет.

Tushub gulguna gulgun qilmish, ermas la'li serobing.

Navoiyning “Badoe ul - vasat” devoniga kiritilgan “Qilur qayg‘u ko‘nglumba ul nozanin jam’ ” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azalida ham “mashshota” obrazi ishlatilgan. Ammo , bu baytda “mashshota” ko‘plik shaklida kelgan.

Yuzing davrida zulfu mashshotalar ko‘r,

Ki, gul xirmanida erur xo‘shchin jam’.

Ya’ni: Ma’lumki, gulzorda turli xil bir – biridan chiroyli anvoyi gullar bo’ladi. Bu anvoyi gullarni terish uchun esa bir gala xotinlar ovora bo’lganidek , ey yor, sening yuzingni pardozlash maqsadida ham bir qancha pardozchilar eshiging tagida qator – qator bo‘lib turibdi. Sen eshigingni ochib bir nazar tashlasang , ularning qanchalik ko‘pligini ko‘rasan. Aslida ularning maqsadlari sening yuzingga oro berish , pardozlash emas, balki sening ruxsoringni bir marotaba ko‘rish, diydoringga to’yishdir. Bu baytdagi “mashshotlar” ya’ni, “pardozchilar” ma’shuqaning visoliga yetishish uchun harakat qilayotgan – oshiqlardir .

Yuqoridagi kabi baytlar Navoiyning faqat g‘azallarida emas, balki muxammaslarida ham ko‘zga tashlanadi. Quyidagi muxammasda lirik qahramonning yorini pardozchidan rashk qilishi, qizg‘anishi tasvirlangan.

Rashkdin har dam yaqindur bag‘rim erib oqqali,

Yuzingga mashshotavu ko‘zgusi mundoq yoqqali,

Zulfunnga mashg‘ul erur mashshota zavar toqqali,

Men yiroqdin jon berurmen toqatim yo‘q boqqali,

Yuzi qattiq ko‘zgukim, bo‘lmish jamoling hamdami.

Bu muxammasda “mashshota” obrazi ikki o‘rinda ishlatilgan bo‘lib, har ikki o‘rinda ham pardozchi ma’nosida qo‘llanilgan. Muxammasda quydagicha ma’no ifodalangan. Ey yorim sen nega buncha pardozchining ko‘zgusiga qarayverasan? Ko‘zguga har boqqaningda men rashkdan adoyi tamom bo‘laman. Rashkdan bag‘rim sel bo‘lib oqadi. Pardozchi sening sochlaringga

oro bera boshlaganda esa, men bunga chidayolmay jon bera boshlayman. Chunki, bunday alamga boshqa chidayolmayman.

Navoiy bu obrazni nafaqat gʻazallarida, muxammaslarida balki, muammolarida ham qoʻllagan. Masalan, uning “Badoyi ul- bidoya” devoniga kiritilgan muammolarining birida shunday muammosi uchraydi:

Sabodin koʻrdi chun mashshota ikki zulfini darham,

Oningdek uchlarin kestiki qatʼ oʻldi girihlar ham.

Pardozchi maʼshuqani sochlarini taramoqlik maqsadida keldi. Qarasaki, uning zulfi chigal, jingalak tarzda edi. Pardozchi bu ishdan hayron boʻlib, maʼshuqaning sochlaridagi bu chigallikni shamoldan koʻrdi. Bu muammoni yechishga urinib koʻradigan boʻlsak, birinchi misradagi maʼshuqaning ikki zulfi arab alifbosidagi ʼ(lom) harfiga oʻxshagani uchun ikkita ʼ(lom) harfini yozib olamiz. ʼʼPardozchi maʼshuqaning sochlarini tarayotib bu ikki zulfning chigalini yoza olmadi. Chigallikni yozish maqsadida pardozchi ikki zulfning faqat uchlarini kesib tashlagan edi, xuddi ʼalif harfiga oʻxshash sochlar qoldi. Natijada bu muammodan quyidagi javob kelib chiqdi. ʼʼ

“Mashshota” obrazi Navoiyning faqat lirikasida emas, balki asarlarida ham qoʻllanilgan. Masalan, “Layli va Majnun” dostonida bu obraz ishtirok etgan baytlar ham uchraydi.

Mashshota qilurda vusmani pok,

Qoshingni xud aylamas grihnok.

Bu baytda ham “mashshota” obrazi “pardozchi” maʼnosida ishlatilib, maʼshuqaning qoshlariga oʻsma qoʻyishi tasvirlangan.

Navoiyning soʻz qoʻllash mahorati shunday oʻrinlarda koʻrinadiki, u ijodida qoʻllagan obrazlarni faqat bir nom bilan emas, balki ikki – uch xil nom bilan ham atagan. Masalan, “pardozlovchi” obrazini aynan mashshota soʻzi orqali emas balki, “qorimchi” soʻzi orqali ham ifodalagan. Masalan, uning “Gʻaroyib us – sigʻar ” devoniga kiritilgan gʻazalida qorimchi soʻzi qoʻllanilgan.

Zulfiga, ey mushk, istarsen qorimchi bandaligʻ

Yo‘q hading kechgil bu savdodin o‘zingni sotma ko‘p.¹⁸

Bu baytda lirik qahramonning mushk(hushbo‘y hidli atir)ka berayotgan maslahati ifodalangan. Ya‘ni: Pardozi ma‘shuqaning sochlariga oro berayotganini ko‘rgan mushk uni yanada jozibali qilish maqsadida yorning sochlariga xushbo‘y hid berishni xohlab qoldi. Ammo ey mushk, sen pardoziyning qo‘lidagi yorning sochiga xushbo‘y hid berishni xohlaysan. Ammo sen bu niyatingdan qayt, chunki uning sochidan taralayotgan hid sening hiddingdan xushbo‘ydir. Ko‘rinib turibdiki bu yerda qo‘llangan qorimchi so‘zi “pardoziy” ma‘nosida kelgan.

2.3 Shoirlar ijodida ishq talqini

Amiriyning ishq mulkining shohi sifatida Navoiyning haqiqiy va majoziy ishqni tarannum etuvchi lirik she‘rlaridagi insonparvarlik tuyg‘ulari, komil inson haqidagi umumbashariy g‘oyalaridan ta‘sirlanib, ularni ma‘qullab, o‘z davri sharoiti va talabiga ko‘ra ularni boyitish, davom ettirishga harakat qildi. Har ikkala shoir ijodiga nazar tashlaymiz va ishqiy g‘azallarini tahlil qilishga urinib ko‘ramiz. Alisher Navoiy she‘riy merosi ko‘lamining kengligi, ayni choqda rang-barang mavzularni o‘zida mujassamlashtirganligi bilan ahamiyatlidir. She‘rda hayotning barcha murakkabliklari haqida nozik ishoralarda badiiy fikr yuritish adabiy ijodga xos yetakchi xususiyat sanaladi. Shu ma'noda ulug‘ shoir she‘riyatini u yashagan davrning betakror qomusi deyish mumkin. Unda shoir zamondoshlarining shavq-u zavqi, tabassumi-yu qahqahasi, g‘azabi-yu nafrati, ingrash-yu dardu fig‘oni, shirin xayollari-yu ezgu niyatlari, baxtli kunlari-yu musibati, to‘y-u ta‘ziyasi, xullas, murakkab ruhiy-maishiy olami, sertashvish hayoti sahifalari yorqin iz qoldirgan. Buyuk mutafakkir faoliyat ko‘rsatgan zamonning ilmiy-badiiy saviyasi, tafakkur kengliklari, falsafasi, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta‘limiy, ilohiy-irfoniy mezonlari uning she‘riy merosida badiiy tajassumini topgan. Shu bois ulug‘ shoirning rangin she‘riyati mohiyat-mazmuni bilan, shubhasizki, ma‘nolar xazinasidir. Unda Sharq mumtoz adabiyoti an‘analari takomillashtirilgani, hamd,

¹⁸Алишер Навоий. Гаройиб ус-сигар. 111-бет.

na't, mav'iza yo'nalishidagi she'rlarga keng o'rin berilganini kuzatish mumkin. Ishq-muhabbat mavzusi esa kichik she'riy asarlarining tayanch yo'nalishini tashkil etadi. Ayni choqda bu ko'hna va doimo yangilanib boruvchi barhayot mavzu ulug' shoir qalamida ayrica joziba kasb etdi. Natijada uning oshiqona she'rlari bag'rida XV asr ikkinchi yarmi hayotining ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiy, ilohiy-irfoniy qarashlari go'zal badiiy ifodasini topdi va shunday kichik janrdagi asarlar mavzular olamining boyitilishiga munosib hissa bo'lib qo'shildi. Ishq-muhabbat inson-ma'naviy kamolotida hal qiluvchi mavqega egadir.¹⁹ Ulug' shoir muhabbat mavzusida qalam tebratar ekan, eng avvalo, dard ahli—oshiqlarga murojaat qiladi:

Ey Navoiy, dardlig' nazmingni dard ahli bilur,
Dardsiz dog'i bo'lur oni o'qig'och ahli dard.

Alisher Navoiy she'riyatida ishq va dard bir-biri bilan chambarchas bog'liq, biri ikkinchisini doimo taqozo qilib turuvchi tushunchalardir. Dard aslida inson vujudidagi xastalikni anglatga-da, biroq u ijod va ishq olamida ijobiy ma'no kasb etadi. Shoir nazmidagi «ahli dard» esa aqlni hayratga solg'uvchi tuyg'ular tug'yonidan qalblarida uyg'ongan jo'shqin muhabbat bois ishq yo'lini ixtiyor etgan oshiqlardir. «Hayrat ul-abror» dostonida bu egizak tushuncha pok niyatli oshiqning ma'naviy kamolotga, poklik olamiga yetaklovchi vosita sifatida ulug'lanadi:

Oshiq ani bilki, erur dardnok,
Ham tili, ham ko'zi-yu ham ko'ngli pok.
O'zlugidin ishq ani pok etib,
Balki fano o'tig'a xoshok etib.

¹⁹ Valixo'jayev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. —T., 1993.202-bet.

Alisher Navoiy she'riyati haqsevarlik va insonsevarlik ta'limoti bo'lgan tasavvuf g'oyalariga o'zgacha jilo va sayqal berish bilan ravnaq topadi. Masalaga shu nuqtai nazardan yondashadigan bo'lsak, ulug' shoir baytlaridagi «o'zlugidin ishq ani pok etmoq»-ishq vositasida oshiqning eng katta dushmani—nafsi ustidan g'olib kelishidir. «Fano o'tig'a xoshok bo'lmoq»-oshiqning eng ezgu maqsadining amalga oshishi, uning «Ma' shuqi azal visoliga vosil» bo'lishidir. Buning uchun «dardnok» oshiqning «ham tili, ham ko'zi-yu ko'ngli pok» bo'lmog'i zaruriy shart hisoblanadi. Poklik-juda katta tushuncha. Tilni pok tutmoq - uni bema'ni gaplar uchun ishlatmaslik, g'iybat-tuhmatga berilmaslikdir. Ko'zni pok tutmoq — shubhali narsalardan saqlanish, ko'rish noravo bo'lgan nomahramlarga boqmaslik hisoblanadi. Ko'ngilni pok tutmoq esa -umuman man qilingan jamiki narsalardan, istaklardan tiyilishdir. Ko'rinadiki, poklikni ixtiyor qilgan inson o'z haddi va haqqiga qanoat bilan yashamog'i zarur ekan.

Ishq-muhabbat talqini ulug' shoir she'riyatidagi eng serqirra ma'no-mohiyat kasb etuvchi mavzu sanaladi. Jumladan, insonni insonga, hayotga, tabiatga va Yaratuvchiga bo'lgan samimiy sevgisini ifodalagan she'rlar bu keng qamrovli mavzuning tayanch ustunidir. Alisher Navoiy qit'alarida bu tushuncha haqiqiy va majoziy ishq tarzida talqin qilish mumkin bo'lgan yo'nalishda badiiy ifodasini topadi. Haqiqiy ishq insonning Allohga, majoziy ishq esa insonning insonga, hayotga, tabiatga butun mulki borliqqa bo'lgan muhabbatidir. Ulug' shoir mavjudot jami ajoyibotlari orasida ziddiyat emas, balki bog'liqlik, aloqadorlikni ko'radi. Ular bir-birini taqozo qiladi. Alisher Navoiyga xos bunday dunyoqarash uning qit'alaridan birida sarlavha vazifasini bajargan: majozdin maqsudi haqiqat ekani izhor qilmoq va suratdin g'araz ma'ni ekanin padidor qilmoq»

Majozdin manga maqsud erur haqiqiy ishq,
Nedinki, ahli haqiqatqa bu tariqat erur.
Majozdin chu haqiqatqa yo'l topar oshiq,
Qilur majozni nafyi ulki, behaqiqat erur.

Ulug' shoir mazkur qit'ada majoziy muhabbatni e'tirof etgani holda, o'sha ishq poklik va halollik bilan nurlidir hamda u poklanish tufayli ilohiy ishq maqomiga

ko‘tariladi, degan g‘oyaga sodiq qoladi. Shuningdek, ulug‘ shoir majoziy ishqdan murod ilohiy ishq haqida o‘ylash, fikr yuritish, uning hijron-u iztiroblaridan lazzatlanish ahli haqiqatning tanlagan yo‘lidir, deydi. Bu yo‘lda tariqat va uning hayotbaxsh ta‘limoti madadkordir. Alisher Navoiy she‘riyatida, jumladan, tahlil qilinayotgan qit‘ada majoz va nazmiy san‘atlar vositasida badiiy mushohada yuritish mayli baland. Aksariyat hollarda so‘zlar zulma‘naynlik (ko‘p ma‘nolilik) fazilatiga ega. Shuning uchun ular mohiyatini darrov payqash dushvor. Navoiyona misralar mag‘ziga chuqur mulohazasiz yetish imkondan tashqaridir. Shunday fazilat yuqoridagi va quyida ko‘chiradiganimiz qit‘ada ham yorqin ko‘zga tashlanadi:

Ko‘rmasa husni majozii ichra juz haq sun‘ini,
Oshiqekim, bo‘lsa ishq atvori ichra pokboz.
Zohido, bu ishqdin man‘ aylamas oshiqnikim,
Gar sen idrok aylasang, ayni haqiqatdur majo

Ushbu qit‘ada ulug‘ shoirning falsafiy mushohadasida teranlik bilan yonmayon dadillik va aniqlik turganligini his qilish qiyin emas. Chinakam oshiq yor - mahbubasi jamolida Yaratganning nuri tajallisini his eta olsa va uning sa‘y-harakatlarida poklik ustuvor bo‘lsagina, majoz haqiqat pillapoyalariga ko‘tarilishi mumkin. Qit‘ada zohidga murojaat ham bejiz emas. Umuman, zuhd-u zohidlik masalasidagi qarash ehtiyotkorlikni toqozo etadi. Chunki bu toifa ahlining xatti-harakatida namuna olsa arzigulik jihatlar bor. Ular toat-u ibodat, namoz-u ro‘zani kanda qilmaydi. Doimo tavba qilib, tahoratli yurishadi. Biroq ularning riyokorligi toat-u ibodatini ko‘z-ko‘z etishi va jannat tama‘ida bo‘lishlarida yorqin ko‘rinadi. Oshiq va zohid dunyoqarashlari o‘rtasidagi keskin tafovutga adabiyotshunos N. Komilovning «Tasavvuf» kitobida nozik ishoralar bor. U o‘z fikrlariga mashhur sofiy ayol Robia Adviyaning (714-801) Allohga munajatlarida quyidagicha nola qilib aytgan so‘zlarini keltirish bilan oydinlik kiritadi: Ey Parvardigorim, Ey yori aziz, agar jannating tama‘ida toat qiladigan bo‘lsam, jannatingdan benasib et, agar do‘zaxingdan qo‘rqib ibodat qiladigan bo‘lsam, meni do‘zax o‘tida kuydir, ming-ming roziman! Ammo agar Sening jamolingni deb tunlarni bedor o‘tkazar

ekanman yolvoraman, meni jamolingdan mahrum etma!». ²⁰ Ko‘rinadiki, tasavvuf ahlida hayotga tavakkul bilan qarash kayfiyati baland. Ularning qat’iy ishonchiga ko‘ra, solik ishq va tariqat maqomlari sari intilishini davom etishi, bu haqda baland ovoz bilan gapirmasligi, tama’dan yiroq turishi lozim. Ulug‘ shoir g‘azallarida ushbu fikrlarni quvvatlovchi ko‘plab baytlarni uchratish mumkin:

Navoiy, ishqdin ne kelsa, dam urmaki oshiqqa,
Keraktur ishq pinhoni-yu dog‘i ishq pinhoni.

Alisher Navoiy ushbu bayt bag‘riga o‘zi muridi komili bolgan naqshbandiya tariqatining «Dil ba yor-u dast ba kor» tayanch g‘oyasi mohiyatini singdirgan. Aslida ulug‘ shoir she‘riyati qahramonlari ishqdan yetgan barcha ozor-u mashaqqatlarga sabot va matonat bilan bardosh berishga tayyordirlar. «G‘aroyib us-sig‘ar» devoni g‘azallarining biriga mansub bo‘lgan quyidagi bayt she‘rda harakat qiluvchi qahramoni haqida ham shunday xulosaga kelishga asos bo‘ladi:

Ey Navoiy, ishq mushkil deb nechuk tarkin tutay,
Gar bu ish hunar bo‘lsa, bo‘luptur fan manga

Ulug‘ shoir ishq bobida tenglik falsafasini ilgari surib, g‘azallarining birida: «Ishq aro shoh-u gado tengdir, balki gado fuzun», - deya e’tirof etadi. Biroq bu muqaddas tuyg‘uni e’tiqodida sobit bo‘lmagan, munofiq kishilar tomonidan toptalishini keskin tanqid qiladi:

Ulki ermas ishq pok-u sajda aylar ko‘rsa husn,
O‘yladurkim, aylagay fosih tahoratsiz namoz.

Husn - go‘zallikni ko‘rib, unga mahliyo bo‘lgan kishining sajda qilishi pok ishqning nishonasi emas. Undagi «sadoqat» va «e’tiqod» nobakor kimsaning yuviqsiz - tahorat olmay namoz o‘qishi bilan barobardir. Ishq, avvalo, poklik, qolaversa, sadoqat-u chinakam e’tiqod bilan muqaddasdir. Mana shu talab-tamoyillar buzilgan joyda xoh majoziy, xoh ilohiy ishq bo‘lsin, bular haqida gap-

²⁰Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. Toshkent: «Yozuvchi», 1996, 6-bet.

soʻz boʻlishi mumkin emas. Ishqda vafo, sadoqat gʻoyasi shoirning quyidagi gʻazalida oshiqning oʻziga xos qasamyodi sifatida ifoda etilgan:

Koʻnglum oʻrtansun agar gʻayringgʻa parvo aylasa,
Har koʻngul ham kirn sening shavqungni paydo aylasa.
Har kishi vaslin tamanno aylasam navmid oʻlay,
Har kishi hamkim sening vasling tamanno aylasa.
Oʻzgalar husnin tamosho aylasam, chiqsun koʻzum,
Oʻzga bir koʻz hamki husnungni tamosho aylasa.
Gʻayr zikrin oshkora qilsa lol oʻlsun tilim,
Bir til hamki zikring oshkoro aylasa.
Rashkdin jonimgʻa har nargis koʻzi bir shuʻladur.
Bogʻ aro nogoh xirom ul sarvi raʼno aylasa.
Yoʻq ogʻizdin nukta aytur mahvashimdek boʻlmagʻay,
Gar quyosh har zarrasidin bir Masiho aylasa.
Oqibat jonimgʻa yetti, ey xush ul mugʻkim, meni
Bir qadah birla xarobot ichra rasvo aylasa.
Kelturung dafi jununumgʻa parixon, yoʻq tabib
Kim ul ansabdur pari har kimni shaydo aylasa.
Subhdek bir damda gardun qoʻymagʻay osorini,
Nogah ahli sidq koʻngli mehrin ifsho aylasa.
Dahr shoʻxigʻa, Navoiy, sayd boʻlma nechakim,
Kun uzori uzra tun. (zulfin mutarro aylasa 1, 66-67).

Koʻchirilgan gʻazal oʻn baytli, tuzilishiga koʻra yakpora-musalsaldir. Mavzu va gʻoyaviy yoʻnalishi nuqtai nazaridan oshiqona-orifona gʻazallar sirasiga kiritish mumkin. Radifli («aylasa» oʻzgarishsiz takrorlanib, shunday vazifani ado etadi), taxallusli. Matlaʼ oʻzaro qofiyalangan, birinchi bayt (band) va maqtaʼga (xulosa, xotimaga) ega. Matndagi «parvo», «paydo», «tamanno», «tamosho», «oshkoro», «raʼno», «Masiho», «rasvo», «shaydo», «ifsho», «mutarro» soʻzlari qofiya

vazifasida kelgan. Qofiya uchun mazmun ozor chekkan misralar koʻzga tashlanmaydi. Gʻazalda maʼshuqa bevosita ishtirok qilmaydi. Uning haqidagi barcha maʼlumot-u xabarlar oshiq tilidan beriladi. Gʻazalda matladan boshlangan mazmun (oshiqning maʼshuqa nazdidagi qasamyodi) maqtaga qadar izchil davom etadi. Ayni uslubiy-gʻoyaviy jilo gʻazal yakporaligini taʼmin etgan. Gʻazalda majoziy va ilohiy-irfoniy ishq qorishiq keladi. Bunday mayl, ayniqsa, gʻazalning yetti va sakkizinchi baytlarida ravshan koʻrinib qoladi. Undagi «quyosh», «zarra», «Masiho», «mugʻ», «qadah», «xarobot» singari qator ishoralar shunday xulosaga kelish uchun asos beradi. Ishqda poklikni tayanch shart sifatida biluvchi oshiq unga rioya etishni vujud-vujudi bilan istaydi va ayni talabni maʼshuqadan ham soʻraydi. Shunday bayt misralarida qasamyodlar yonma-yon tutilib, badiiy talqin beriladi: Oshiq oʻz qatʼiy soʻzi ustidan chiqish uchun yuragini tilka-pora qilishga, juvonmarg boʻlishga, koʻzlarining koʻr, tilining lol (soqov)ga aylanishiga rozi. Shunday qargʻishlar shartini buzgan maʼshuqaga yoxud uni poklik yoʻlidan chalgʻitishga urinuvchi - agʻyorga ham ravo koʻriladi. Gʻazalda shoh baytlar uchraydi. Fikrimizcha, beshinchi va oltinchi baytlar shunday xususiyatga ega. Unda bir necha badiiy sanʼatlar (tashbeh yashirin talmeh, mubolagʻa, tanosub va hokazo) qorishiq kelib misralar nazokatini koʻtarishga xizmat qilgan. Oshiq gulzor ichra xirom qilib yurgan sarvi raʼno maʼshuqasini nargisdan ham rashk qiladi. Maʼshuqa nuqta misol (yoʻq hisobi) ogʻizchasi bilan soʻz aytsa, uning oydek gulgun chiroyi yana ochiladi va hokazo.

Alisher Navoiy sheʼriyatida hamd, naʼt yoʻnalishidagi asarlar, ijtimoiy hayotning turli muammolari, odob-axloq meʼyorlariga bagʻishlangan badiiyat namunalarini juda koʻplab uchratish mumkin.²¹

Amiriy ijodiga nazar tashlaydigan boʻlsak gʻazal Amiriy sheʼriyatining etakchi janridir. U asosan shu janr orqali ishq ahlining amiri sifatida koʻzga tashlanadi. Shu janrdagi asarlarida insonga xos najib his-tuygʻularni, hayotiy va ilohiy

²¹ R. Orzibekov. Oʻzbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 2006. 156-157-betlar.

kechinmalarni, orzu-umidlarni tarannum etadi. Demak, muhabbat - shoir gʻazallarning etakchi mavzuidir. Shoir

Ishq mulkini Amirimen, muhabbat zevarim,
Istaram to subhi mahshar yor vaslidan liqo.

Amiriy ayrim gʻazallarida ishq yoʻlida iztirob chekayotgan va alamdanda mayga ruju qoʻygan, visolni qadah tubidan qidirayotgan oshiqni toat-ibodatdan chalgʻimaydigan zohidga qarshi qoʻyadi. Bu tur gʻazallari orasida „Qizartib chehra maydin oshiqi zoringni kuydirma" satri bilan boshlanadigan sheʼri diqqatga molikdir. Gʻazalning ikkinchi baytida shoir zohidga murojaat qilib deydi:

Yonar oʻtgʻa xusumat aylasa boʻlgʻaymu, ey zohid,
Muhabbat ahligʻa dam urma, dastoringni kuydirma.

Xuddi yonayotgan oʻt bilan oʻchakishib boʻlmaganidek, vujudi ishq otashida qovurilayotgan ishq ahliga toat-ibodatdan dam urib, sallani kuydirish mumkinligidan ogohlantiradi. Oshiqning boshini aylantirib imondan ayirgan yor soch tolalaridan kechmoqlik zohid soʻziga kirib belbogʻini kuydirgan nasroniyni ishiga oʻxshash boʻlishi aytiladi:

Erur sargashtai maqsudi imon yor gisuyi,
Kirib zohid soʻziʻa ushbu zunnoringni kuydirma.

Gʻazalning

„Bel-u ogʻzi xayolin mugʻtanim boʻlmaysan ey koʻngul,
Nakim yoʻqdir anga shukr ayla, yoʻq-u boringni kuydirma"

satrlarida mumtoz adabiyotimizdagi anʼanaviy tashbihlar yangi jilolari bilan namoyon boʻladi. Har qanday moʻmin, ayniqsa, soʻfiy uchun noshukurlik kechirilmas ulkan ayb. Shu bois ogʻizning yoʻqligi-yu, belning borligiga shukur qilmoq kerak. Aks holda, kishi yoʻq-u boridan ayrilishi, imonsizlar qatoriga oʻtib qolishi mumkin. Gʻazalning qolgan baytlarida ham tasvir maromi susaymaydi, oshiqning eng qaltis vaziyatlardagi holati nozik ifoda qilinishiga erishiladi.

Shoirning „Nega muncha siyohdur kokul" misrasi bilan boshlanadigan gʻazalida ham muhabbat tuygʻusi qalamga olingan.

She'ring lirik qahramoni o'z oldiga shu tariqa savol qo'yar ekan, mumtoz adabiyotda ham hech kimning xayoliga kelmagan yo'sinda unga javob topishga erishadi:

Nega muncha siyohdur kokul,

Magaram dudi ohdur kokul.

Qahramonning izohiga ko'ra, kokilning qoraligi oshiq ohining dudi tufayli bo'lishi ehtimol. Negaki, dud, ya'ni tutun hamisha qoraytiradi. Ehtimol, oshiqning yor oyog'i tagida chekkan adoqsiz ohlari dud bo'lib, uning boshiga qo'nganidan sochlari qoraygandir. Ikkinchi baytda shoir xayoloti parvozi yanada balandlashadi. Uning nazarida, qop-qora sochlar orasidan ko'ringan yor yuzi oppoq oyning qo'rg'onlashiga o'xshaydi:

Halqai zulfdin ko'rundi yuzi,

Holai badri mohdur kokul.

Oqlikni bo'rttirib ko'rsatish uchun qoralikdan ustalik bilan foydalana bilish uchun ulkan poetik iste'dod zarur bo'ladi. Keyingi baytlarda shoir kokilga „husn iqbolini yashirish“ uchun kuloh, oshiqning yor xoli va xati, ya'ni labi ustidagi mayin tuklari tomonidan qatl etilishiga guvoh va husn mamlakati amiriga saltanatni boshqarishga dastgoh singari sifatlarni baxsh etadi. Muhimi shundaki, Amiriy tasvirning biror o'rnida zo'rakilik qilmaydi, tabiiylikka daxl yetkazmaydi, hayotiy va badiiy mantiqdan chekinmaydi.

Shoirning „Junun daryosi tug'yon aylamakni mendin o'rgandi“ deb boshlanadigan g'azalida ham shu tasvir yo'siniga amal qilingan. Mubolag'aning g'uluv darajasidagi kuchaytirilgan ifodalari, ruhiy imkoniyatning chegaralariga qadar yuksalib borgan tasviriy miqyos Amiriy she'rlariga estetik ko'lam bag'ishlaydi. Ularni qamrovli, ta'sirchan, kutilmagan tashbihlarga boy bo'lishini ta'minlaydi:

Junun daryosi tug'yon aylamakni mendin o'rgandi,

Talotum birla to'fon aylamakni mendin o'rgandi.

Odatda, she'riyatda inson xatti-harakat va ruhiy holatlarni tabiiy hodisalardan o'rganganligi tasvirlanardi. Bu o'rinda kutilmagan badiiy holat

yuzaga keladi.Ya'ni tentaklik daryosi tug'yonni, toshqinni, guvillashni she'r qahramonidan o'rganganligi tasvirlanadi. Keyingi baytda matla'dagi tasvir necha bor quyuqlashadi:

G'am-u dard-u muhabbat gulshanida gul bila g'uncha,

Yaqo chok-u ko'ngul qon aylamakni mendin o'rgandi.

Muhabbat gulshanidagi gul to'kilmoqni, g'uncha yaqosini yirtmoqni oshiqdan o'rgangan ekan.Bu tasvir shiddati keyingi baytlarda ham ushlab turiladi.G'azal matniga kirib borgan sari oshiqning hech kimnikiga o'xshamaydigan fidoyi qiyofasi tobora ravshanlashib boraveradi. She'r yakuniga yaqinlashganda u Majnunga murojaat qilib, telbalik maktabida muallim ekanini va sahar ham kiyimlarini yirtishni, ya'ni tunni parchalab yorug'lik keltirishni undan o'rganganligini aytadi:

Muallimmen bukun savdo dabistonida, ey Majnun,

Sahar choki giribon aylamakni mendin o'rgandi.

G'azal maqta'sida shoir mumtoz ishqiy lirika tajribasida kamdan-kam bo'ladigan holatni beradi. Ya'ni oshiq dardiga davo topganini ifoda etadi:

Amir, ul oy g'amidin ayladim dardim ilojini,

Hakimi ishq darmon aylamakni mendin o'rgandi.

Amiriy lirikasida umrning g'animatligi, hayot imkoniyatlaridan o'z vaqtida foydalanish zarurligi ichki bir dard bilan ifoda etiladi. Lekin Amiriy qalamidan to'kilgan dard ezginlik bermaydi, balki hayotbaxshlik, umidvorlik paydo qiladi. Shoirning „Tushti tori zulfi yuzdin ko'nglum ichra pechtob" misrasi bilan boshlanadigan g'azalida ham shu holatni kuzatish mumkin:

Tushti tori zulfi yuzdin ko'nglum ichra pechtob,

Aylamish ko'ksun aro siymob1 yanglig' iztirob.

Amiriyning tasvir bobidagi mahorati matla'dayoq yaqqol ko'zga tashlanadi. Yor yuziga tushib turgan soch oshiqning ko'ngliga kirdi va uni tuzoq kabi domiga olgach, uning ko'nglida kilkillab turgan simobday iztirob paydo bo'ldi. Ayni „siymob" so'zini eritilgan kumush ma'nosida „kumush suv" deb ham tushunish mumkin.Yuqoridagi g'azallar tahlilida tabiiy narsalar odam holatiga o'xshatilgani

aytilgandi, bu baytda ruhiy holat, ya'ni izzat simobning yurishiga o'xshatiladi. Keyingi baytlarda ma'shuqaning chiroyi va uning oshiqqa ko'rsatgan ta'siri yuqorilab boradi va u:

Men nechuk savdo bilan rasvoya olam bo'lmayin,

Telba bo'lg'oy mohi ruxsoringni ko'rsa oftob

deya o'z holatini asoslashga urinadi. Chunki yuzini oftob ko'rsa, telba bo'lib qoladigan darajadagi go'zalni sevgan oshiqning jinnilik bilan rasvoya olam bo'lishi ajablanarli. Vaholangki, biz Amirini dunyoviy shoir deya olmaymiz. Toki inson qalbida ishq bor ekan u o'sha ishq orqali komillikka intiladi, shu jumladan qalbidagi ishq orqali haqqa intiladi. Amirining aynan shu xususiyati bilan Navoiyga ergashganligini, ya'ni majoz orqali haqiqatga intilganini ko'ramiz. Biz har ikkala shoir ijodidagi ishqiy g'azallarni tahlil qilishga urinib ko'rdik va shoirlar she'riy merosi ko'lami keng, ayni chog'da rang-barang mavzularni o'zida mujassamlashtirganligi bilan ahamiyatli ekaniga amin bo'ldik.

Xulosa.

Noyob iste'dod sohibi bo'lmish Amiriy adabiyotshunoslik sohasida muhim o'rin egallaydi. Adabiyot tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Amiriyning ijodi uning adabiyotshunoslikka qo'shgan hissasi beqiyosdir. Shuningdek, u o'ziga xos original ijodkordir. Uning ijodida g'azallarning o'рни beqiyos desak mubolag'a bo'lmaydi. U bir qancha ijodkorlar bilan mushoiralar olib borgan. Ushbu mushoiralari orqali yozuvchi o'z davri adabiy muhiti bilan qizg'in aloqada bo'lgan.

O'zbek adabiyotining peshqadam namoyandalari — Muqimiy, Furqat, Muhyi, Nihoniy ijodini, xususan, lirik she'rlarini Amiriy she'rlari ta'siriz tasavvur etish qiyin. Muqimiyning beshta tazmin muxammasi Amiriy g'azallari asosida ijod qilinganligi bunga dalildir. Bu hol Amiriyning adabiyotga homiyligini, ustoz shoir sifatidagi mavqeini yanada chuqur o'rganishni taqoza etadi.

Amiriy ilmiy merosining bizgacha yetib kelishida, devonining nashrlarini tayyorlash, uni ilmiy muomalaga kiritish, ijodiyuzasidan tadqiqotlar olib borish kabi ko'pgina sohalarda salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Bunda A. Hayitmetov, M. Qodirova, H. Muhammadxo'jayev, R. Orzibekov, A. Qayumov, kabi olimlarning xizmatlari beqiyos ekanligini alohida ta'kidlab o'tish o'rinlidir. Amiriyning adabiy merosi uning o'z davrida tartib berilgan «Devon»ida, bir qismi «Majmuat ush-shuaro» tazkirasida jamlanganligini ko'rib o'tdik. «Devon»ning o'n bitta qo'lyozma nusxasi O'zFA Sharqshunoslik instituti xazinasida saqlanishi haqidagi ma'lumotlar ham keltirilgan. Bu qo'lyozmalarning bir qanchasi Umarxon hayotligi davrida ko'chirilgan. Amiriy she'riyatiga bo'lgan qiziqish muttassil davom etib borgan. Uning asarlari qo'shni mamlakatlarda ham sevib o'qilgan, kitobat qilingan. 1882 yili Istanbulda, 1905 yili Toshkentda bosma nashrlari yuzaga kelgan.

Amiriyning adabiy faoliyati va ijodi bizning davrimizda munosib baholandi va ommalashdi. Amiriyning yuqorida zikr qilingan bir qator g'azallarida shoir dunyoqarashining, tafakkurining aks etganini kuzatish mumkin. Amiriy bizning ko'z o'ngimizda asosan o'z davrining ilg'or fikrli, mushohada doirasi keng

san'atkori sifatida namoyon bo'ladi. Uning ajoyib g'azallari tahlili jarayonida bunga ishonch hosil qilish mumkin.

Uning ijodida ayniqsa Navoiy ijodining badiiy ta'siri yaqqol ko'zga tashlanadi. G'azal mulkining sultoni hisoblanmish Alisher Navoiy adabiy merosi turkiy she'riyat hamda umumsharq adabiyotining eng ilg'or an'alarini o'zida mujassam etgan yangi va yuqori bosqich hisoblanadi.

Alisher Navoiy ijodining tub mohiyati falsafiy, ijtimoiy, va estetik qarashlarining yuksa poetik shakldagi ifodasi bo'lganligi bilan xarakterlanadi.

Alisher Navoiy she'riyatini to'laligicha ta'rif etishga til ojiz. Navoiy she'riyati nazm olamining eng noyob durdonasi va nazm ichra mo'jizalarning mo'jizasi hisoblanadi. Navoiy ijodida ishq talqini, aynan mana shu jihatini ham Amiriy o'z ijodida namoyon eta olgan.

Amiriyning ishq mulkining shohi sifatida Navoiyning haqiqiy va majoziy ishqni tarannum etuvchi lirik she'rlaridagi insonparvarlik tuyg'ulari, komil inson haqidagi umumbashariy g'oyalaridan ta'sirlanib, ularni ma'qullab, o'z davri sharoiti va talabiga ko'ra ularni boyitishida, davom ettirishida ham ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek Navoiyning she'riyat muxlislari orasida keng tarqalgan, sevib kuylangan g'azallariga nazirasifat she'rlar yaratganini, Navoiy g'azallari ohangi va shaklida yangi g'azallar, she'rlar yaratganini ham yo'qorida zikr etdik.

Amiriy Navoiyning eng sara g'azallariga tazmin (taxmis) muxammaslar yaratishgan. Zero, adabiy ta'sirning bu so'nggi shaklida Amiriyning Navoiy ijodiga nechog'li baland hurmat bilan qaraganligi ko'proq namoyon bo'ladi.

Shoirlarning har bir she'rida ijodkorlarning o'y-xayollari, tuyg'ulari, ehtirosli qalb ovozlari eshitilib turadi.

Demak Amiriy she'riyatida Navoiy g'azallariga tazmin muxammaslar badiiyatini o'rganayotganda tamomila dunyoviy, oddiy insoniy his-tuyg'ularni va kechinmalarni yuksak baadiyat bilan kuylangan lirikani tahlil qilishimiz va uning badiiy ta'sirini ochib berishda istiqlol ruhiyatining ta'siri beqiyos ekanligini anglashimiz zarurdir.

Shuni qayd qilishimiz lozimki, har ikki shoir ijodi adabiyotimiz tarixida muhim mavqe'ga, ahamiyatga egadir. Ularning ijodi o'zlari yashagan davrlari hayotini rivojlantirishga, kitobxonlarning zavqini, estetik ehtiyojini qondirishga xizmat qilib kelgan.

Ularning ijodida davrning talabi, shoirlarning g'oyasi, uslubi o'z aksini tobgan. Bu ijodkorlarning ijodi biz uchun o'tmishni o'rganishimizda muhim manba hisoblanadi. Bugungi kunda ham shoirlar ijodining ahamiyati nihoyatda kattadir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Siyosiy adabiyotlar

1. Каримов И.А Истиқлол ва маънавият.-Тошкент: Ўзбекистон,1994.-160 б.
- 2.Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. Т.: 1999. 502-бет.
- 3.Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир.-Тошкент: Ўзбекистон, 1996.-278 б
4. И.Каримов.Юксак манавият-енгилмас куч.Тошкент«МАНАВИЯТ»2010. 47- бет.

2. Ilmiy adabiyotlar

5. Amiriy. O'zbek adabiyoti tarixi.Majmua-xrestomatiya, 4-jild. -T., 1960.
- 6.Valixojayev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. —T., 1993.
- 7.В а л и х ў ж а е в Б. Мумтоз сиймолар. Икки жилдлик, II-жилд. Тош: А.Қодирий номидаги ХМН, 2002й. 113-б
- 8.Salohiy D. Alisher Navoiy lirikasi. –Samarqand. 2011.91- bet.
- 9.С а л о ҳ и й Д. «Бадоеъ ул-бидоя» малоҳати. – Тошкент: Фан, 2004. – 135 б.
- 10.O'zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik, 4-jild. -T., 1978.
- 11.Komilov N. Tasavvuf.Birinchi kitob. Toshkent: «Yozuvchi», 1996, 6-bet.
12. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Т. «Ўқитувчи» 1967. 400-бет.
- 13.MuhiddinovM. Adabiy an'ana va ijodiy o'ziga xoslik. – Toshkent, 1990.
- 13.Po'latjon Domulla Qayyumov. Tazkirai Qayyumiy, 2-jild. -T., 1998.
- 14.QayumovA. Qo'qon adabiy muhiti.To'rtinchi jild,birinchi kitob. T:Mo'mtoz so'z,2010.104-107 betlar.
- 15.QayumovA. Qo'qon adabiy muhiti.Yettinchi jild,birinchi kitob. T:Mo'mtoz so'z,2010.278- bet.
- 16.Қ а ю м о в А. Қўқон адабий муҳити (XVIII – XIX асрлар). – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1961. – 361 б.
- 17.Qobilova Z. Amiriy va uning adabiy faoliyati: Filologiya fanlari nom. ...dis.avtoref.-Toshkent:2007.-26-b.
- 18.Hayitmetov A.Navoiy dahosi. —T;Adabiyot va san'at,1970.

3. Badiiy adabiyotlar

19. Алишер Навоий. МАТ.ХХ томлик. Тошкент: Фан, 1990.
20. Алишер Навоий. Ғаройиб ўс-сиғар. 111-бет.
21. Алишер Навоий. Қаро кўзим. Т. 1988. 415-бет.
22. Алишер Навоий. Наводир-ун ниҳоя. Т. 1987. 489-бет.
23. Amiriy. Devon. (O'zbek tilidagi she'rlar), Nashrga tayyorlovchi M. Qodirova, Mas'ul muharrir X. Rasulov. — Toshkent: Fan, 1972. 360-b.
24. Amiriy. Qoshing'ga teguzmag'il qalamni. Т. 2008. 300-bet.
25. Нажмиддин Комилов. Ма'нолар оламига сафар. Т-2012. 276-бет.

4. Gazeta va jurnallardagi maqolalar

26. Ж ў р а б о е в О. Қўқон шоирларининг Алишер Навоий ғазалларига мухаммаслари (ва унга нисбат берилган айрим ғазаллар борасида) // Ўзбек тили ва адабиёти. — Тошкент, 2008. №. 4. 9-10 бет.
27. Hasanxo'ja Muhammadxo'ja o'g'li. Ishq ahlining amiri. «Muloqot» jurnali, 1999. 2-son.
28. Rahimova S. Amiriy san'atkorligining bir jihati xususida // O'TA, 2002, №3, 24-bet.

5. enternet saytlari

29. www.samdu.uz/files/web/index.htm
30. www.ziyouz.com.kutubxonasi.

MUNDARIJA

Kirish.....	4
ASOSIY QISM.....	
I Bob. Amiriy hayoti va adabiy merosi.....	8
1.1. Amiriy ijodining o‘rganilish tarixi.....	11
1.2. Amiriy adabiy merosi, devoni nashri.....	13
II Bob. Amiriy ijodida Navoiy ijodining badiiy ta’siri.....	23
2.1. Amiriy she’riyatida Navoiy g‘azallariga tazmin muxammaslar badiyati.....	25
2.2. Amiriy va Navoiy ijodida tasvir mahoratining hamohangligi.....	30
2.3. Shoirlar ijodida ishq talqini	43
Xulosa.....	54
Adabiyotlar ro‘yxati.....	57

Bajardi: Sultonova X.
Ilmiy rahbar: N.M. Muhiddinova